O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VAO‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI

“XALQ IJODIYOTI” FAKULTETI

“MADANIYAT VA SAN’AT MUASSASALARINI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH” KAFEDRASI

“MADANIY TADBIRLAR ORQALI YOSHLARDA VATANPARVARLIK TUYG’USINI SHAKILLANTIRISH USULLARI ”

MAVZUSIDAGI

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajardi: Madaniyat va san’at Muassasalarini tashkil etish va boshqarish ta’lim yo‘nalishi bitiruvchisi 4-kurs talabasi Ergasheva Soraxon

(imzo)

Ilmiy rahbar: Madaniyat va san’at muasasalarini tashkil etish va boshqarish kafedrasi, dotsent V.Rustamov

(imzo)

Bitiruv malakaviy ishi kafedrada dastlabki himoyadan o’tdi. Kafedra majlisining 26 sonly bayyonnomasi “ 17 ” Mart 2018-yil

TOSHKENT2018

Bitiruv malakaviy ishi himoyaga tavsiya etildi

“Xalq ijodiyoti” fakulteti dekani **J.Mamatqosimov**	“Madaniyat va san’at muassasalarini tashkil etish va boshqarish” kafedrasi mudiri **B.Salaydinov**
“14” iyun 2018 yil	“12” iyun 2018 yil

MUNDARIJA

KIRISH.....4

IBOB. MADANIY TADBIRLAR ORQALI YOSHLARDA

VATANPARVARLIK TUYG’USINI SHAKILLANTIRISH USULLARINING NAZARIY ASOSLARI

1.1. Vatanparvarlik tushunchasi va uning yoshlar ongiga singdirish mezonlari.....

1.2. Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash - davlat ijtimoiy siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri.....

II BOB. MADANIY TADBIRLARNI TASHKIL ETISH ASOSLARI

2.1.Madaniy tadbirlar tushunchasi va uni tashkil etishning nazariy asoslari.....

2.2.Madaniy tadbirlarni tashkil etishda qo‘llaniladigan usul va vositalar.....

XULOSA.....

GLOSSARIY.....

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....

KIRISH

Mavzuning dolrzarbligi. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so‘ng ma’naviy-ma’rifiy ishlarga davlatimiz siyosatining muhim ustivor masalalaridan biri sifatida qarala boshladi. Yurtimizda mustaqillik shamollari esa boshlagan davrdanoq, kishilar ongi, dunyoqarashi, tafakkuri, maqsad va intilishlarida, bir so‘z bilan aytganda ma’naviy-mafkuraviy olamida, ruhiy tabiati va hatto qiyofasida ulkan o‘zgarishlar paydo bo‘la boshladi. Chunki, mustaqillik erkinlik, milliylik, vatanparvarlik darvozalarini ochib, insonlarni ezgulik sari boshladi.

Davlatimiz rahbarining hozirgi kunda ma’naviyat, ma’rifat, mafkura, madaniyat, san’at va g‘oyaviy yo‘nalish borasida olib borilayotgan hayotiy va odilona siyosati bu yo‘ldan borishning keng yo‘llarini ochib berdi. Ma’naviyat, mafkura, g‘oya, san’at, madaniyat va ma’rifat haqida borar ekan, unda insonlarning vatanparvarlik, mehnatsevarlik, insoniylik fazilatlarini shakllantirish, ularning bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazishga qaratilgan, ma’naviy ozuqa bera oladigan, estetik zavqlanish imkonini beradigan madaniy tadbirlarning to‘g‘ri, maqsadli tashkil etilishiga e’tibor qaratish muhimdir.

Bugungi kunda yurtimizning ijtimoiy-iqtisodiy kamoloti yosh avlodni say harakatlariga bog’liq ekanligi hammamizga ma’lumdir. O’sib kelayotgan yosh avlod va ularning kelajagi ham ta’lim tarbiyaga jiddiy e’tibor berishni taqozo etadi.

Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev “Mustaqillik yillarida mamlakatimizda yoshlarni vatanparvarlik, milliy an’ana va qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash, ma’naviy yetuk va jismonan sog‘lom barkamol avlodni voyaga yetkazish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasida muayyan ishlar amalga oshirildi.

Shu bilan birga, sohadagi vaziyat va amalga oshirilgan tadbirlar tahlili yoshlarning keng qatlamlariga daxldor bo‘lgan dolzarb masalalar, ayniqsa, uyushmagan yoshlarning hayotda o‘z o‘rnini topishi uchun munosib sharoit yaratish, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, kasbga yo‘naltirish va bandligini ta’minlash, tashabbuslarini rag‘batlantirish borasidagi ishlar talab darajasida tashkil etilmaganidan dalolat bermoqda”,[1] deb bu borada qilishimiz lozim bo‘lgan ishlar haqida aniq vazifa va ko‘rsatmalarni berib o‘tdilar. Bu so‘zlar zamirida hali oldimizda bu sohada juda ko‘p ishlarni qilishimiz lozimligini hayotni o‘zi isbotlamoqda.

“Maqsadimizga erishish yangi demokratik jamiyatni qurish,islohatlarning taqdirini qanday kuchlarga ega ekanliklarimizga, yoshlarimiz qanday madaniy va professional saviyaga erishganligiga, qanday g’oyalarga e’tiqod qilishiga, ma’naviy

[1]O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 5 iyundagi “Yoshlarga oid davlat siyosati” to‘g‘risidagi Farmoni

jihatdan qanchalik boyishiga bog’liqdir”- deydi O’zbekiston Respublikasi birinchi Prizidenti Islom Karimov. Shu bois yoshlarning ma’lumot olish imkoniyatini oshirish, milliy umuminsoniy tiklanish g’oyasini amalga oshirishga qodir yangi avlodni tarbiyalash eng muhim vazifalarimizdan biridir. Shuning uchun bugungi kunda o'zbek xalqining asrlar davomida shakllangan umuminsoniy ma'naviyatini va milliy qadriyatlarini singdirish yoshlarni vatanparvar, barkamol inson qilib tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda yosh avlodni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash nafosat tarbiyasining asosiy masalalaridan biri bolib hisoblanadi. Madaniy tarbiyasi nafosat tarbiyasining asosiy va murakkab qirralaridan biri bo’lib u o’quvchilarni madaniyat va san’ati asarlarini tushunishga va ijro etishga o’rgatadi. Madaniyat va san’at jamiyat hayotining muhim qismidir.U inson ruhiyatiga kuchli ta’sir ko’rsatish imkoniyatiga ega bo’lib ularning his-tuyg’ularini o’ziga xos badiiy tilda ifoda etadi.

Madaniyat va san’at sohasi hayotni o’rgatadi, tasvirlaydi va ifodalaydi. Shu bois madaniyat tadbirlari talabalarda estetik g’oyalarni tarbiyalash orqali ularning ma’naviy va ahloqiy dunyosini har tomonlama takomillashtirishda, ularda oliyjanob fazilatlarini shakllantirishda ta’sirchan vosita bo’lib xizmat qiladi. Yoshlarning hayot tajribasi aql idrokini o’stirib borishida Vatan tuyg’usi kundalik odatdan e’tiqodga aylana boshlaydi. Vatanparvarlikning e’tiqodga aylanishi har bir inson qalbida ichki ma’naviyatning ifodasini belgilab beradi. Milliy Vatanparvarlik deganda esa, bu o’zbek xalqining qoniga singib ketgan iymon, insof, mehr-muhabbat, oqibat, shavqat, or-nomus, ona yurtiga, o’z eliga sadoqat axloqiy ma’naviy qadriyatlar, g’oyalar, qarashlar yig’indisi tushuniladi. Ta’lim beradegan muassasalarda Vatanparvarlik tuyg’usini tarbiyalash ta’limining asosini tashkil etadi. Bunda madaniyat ta’limining milliy asosi muhim rol oynaydi.

Vatanparvarlik his-tuyg’ularini shakllantirishda O’zbekistonning davlat ramzlari bayroq, gerb, madhiya, o’zbek tili, Konstitutsiya va boshqa shu millatga, shu zaminga xos, mos bo‘lgan tuyg‘ular, fazilatlar madaniy tadbirlarda o‘z aksini topishi lozim.

Hukumatimiz yurtimizda istiqomat qilayotgan insonlarning yashash shart-sharoitlarini yaxshilash, yoshlarga bilim berish, bo‘sh vaqtlarini samarali tashkil etish va buning natijasida jamiyat hayotida faol ishtirok etish, oilasi, kasbi, Vatanini sevish kabi ijobiy hislatlarni jo qilishga katta e’tibor qaratmoqda. Madaniyat, san’at va ta’lim tizimini rivojlantirish borasida maqsadli, aniq ishlar olib borilmoqda. Bundan ko‘rinib turibdiki, madaniyat va san’at muassasalari, aynan, madaniyat va aholi dam olish markazlarining faoliyatini takomillashtirish borasida juda keng masshtabda ishlar amalga oshirilmoqda.

Bitiruv malakaviy ishining dolzarbligi shundaki, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalasi davlat darajasidagi masalalardan bo‘lganligi bois, bunday maqsadlarga aniq rejalashtirilgan yo‘l xaritalarida belgilangan vazifalardan iborat ishlarni hayotga tatbiq etish orqali amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Mavzuning o‘rganilganlik darajasi. Vatanparvarlik mavzusida juda ko‘p olim-u ulamolarimizning ijod namunalari-yu, bu haqdagi fikrlari bizgacha yetib kelgan. Amir Temur, Alisher Navoiy, Muhammad Zaxiriddin Bobur, Mirzo Ulug‘bek va boshqa ajdodlarimizning ijod namunalari hozirgi kungacha, ya’ni bizning zamonamizda ham o‘ziga xos o‘rin egallagan bo‘lib, yoshlar tarbiyasida ibrat, namuna sifatida qo‘llanib kelinmoqda.

Madaniy tadbirlarni tashkil etishda uning turlari xususiyatidan kelib chiqib tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Madaniy tadbirlarning turlari juda xilma-xildir. Ommaviy bayramlar, konsert dasturlari, tematik kechalar, turli mavzudagi musiqiy, badiiy, publitsistik, xoreografik kompozitsiya, badiiy sport tomoshalari, ko‘rik-tanlovlar, davra suhbatlari va h.k.lar, shular jumlasidandir. Madaniy tadbirlarning turlari jihatidan, ularning spetsifik xususiyatlari hisobga olingan holda tashkil etish –o‘ziga xos bo‘lgan yondoshuvni tashkil etadi. Mavzularni tanlash, anashu mavzuga mos manbalarni to‘plash, tadbirni ijodiy va tashkiliy ishlarini amalga oshirishda tadbir tashkilotchisiga katta ma’suliyat yuklanadi. Shuning uchun A.Haydarovning “Madaniyat va san’at muassaslarini boshqarish asoslari”, V.Rustamovning “Ssenariynavislik mahorati” kitoblaridan ham foydalanildi.

Masalan, “ko‘rik-tanlov uchun ssenariy yaratilsa, davr suhbati uchun esa tadbirning dasturi kofoya qilishi mumkin. Bir so‘z bilan aytganda, ijodiy, uslubiy jihatdan mukammal, puxta tayyorlangan, to‘g‘ri tashkil etilgan dasturlarni madaniy tadbir deb atash mumkin[2]. Madaniy tadbirlarni tashkil etish, uning dramatik manbasini yaratish, uning inson tarbiyasida tutgan roli masalalari juda ko‘p tadqiqotchilarni o‘ziga tortgan. Bu bitiruv malakaviy ishida ssenariyni yaratish va uni sahnaga ko‘chirish bo‘yicha bir qancha o‘zbek avtorlarining mazkur mavzu haqidagi manbalari o‘rganildi. Xususan, Xaydar Muxammadning “Ssenariynavislik mahorati” (T., 2009), B.Axmedovning “Adabiy va rejissyor ssenariysi” (T.,2008), X.Abdusamatovning “Drama nazariyasi”(T., 2003), B.Sayfullayev va J.Mamatqosimov hammuallifligida yaratilgan “Aktyorlik mahorati” darsligi (T., 2012), U.Qoraboyevning “Madaniy tadbirlar”, (T., 2000) va boshqa mualliflar tomonidan yaratilgan adabiyotlar mazmuni o‘rganib chiqildi va mazkur tadqiqotda qo‘llanildi.

Tadqiqot ishining maqsadi. Madaniy tadbirlar orqali yoshlarning Vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish, yoshlarning Vatan, yurt oldidagi burch va ma’suliyatini anglatish, tarbiyaviy jarayonlarni tashkil etish, tarbiyasini amalga oshirish.

Tadqiqot ishining vazifalari.

1. Ilmiy ishimga oid adabiyotlarni,ilmiy ishlarni o’rganib chiqish.

2. Tajribali o’qituvchilarning ish tartiblarini o’rganib chiqish.

3. Olimlar, shoir, yozuvchi, madaniyat va san’at sohasi bo‘yicha mutaxassislarning yurtimiz, ona Vatan, O‘zbekiston haqidagi fikrlarini o’rganish va ularni yoshlar tarbiyasiga namuna sifatida tatbiq etish;

4. Madaniyat va san’at asarlari orqali yoshlarni Vatanparvarlik tuyg’ulari shakllantirish;

[2]B.Sayfullayev, V.Rustamov. Madaniy tadbirlarni tashkil etish mahorati”. Toshkent, 2016y.44b.

5. Turli mavzularda tashkil etiladigan madaniy tadbirlar mazmuniga vatanparvarlik tuyg‘usidagi mavzular, manbalar, matnlarni singdirish orqali yoshlarda bu fazilatlarni kuchaytirish.

Tadqiqot ob'ekti va predmeti. Tadqiqotning ob'ekti madaniyat va san'at muassasalarida tashkil etiladigan madaniy tadbirlar hisoblanadi. Madaniy tadbirlarni tashkil etish orqali vatanparvarlik fazilatlarini shakllantirishga oid qarashlar uning predmetidir. Madaniy tadbirlar - insonlarning ma'naviy kamol toptirish, ularning bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazish, ma'naviy boyitish, aholini madaniy, ma'rifiy, ijodiy, hordiqiy faoliyatlari uchun shart-sharoitlar, imkoniyat va qulayliklar yaratish, joylarda xalq madaniyatini taraqqiy ettirish va rivojlantirishga qaratilgan faoliyat bo‘lib, insonlarda vatanparvarlik, insoniylik, fidoiylik xususiyatlarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning nazariy-metadologik asoslarini – Respublikamizning Birinchi Prezidenti I.Karimovning asarlari, davlatimiz rahbari SH.Mirziyoyevning nutq va ma’ruzalari, allomalarimiz tomonidan bizlargacha yetib meros bo‘lib qolgan asarlar, madaniyat va san’at sohasi bo‘yicha mutaxassislar tomonidan yaratilgan darslik va o‘quv qo‘llanmalari hamda xukumatimiz tomonidan chiqarilayotgan xujjatlar tashkil etadi. Ayniqsa, O‘zbekistonni yanada rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi, 2017 yil 3 avgust kuni Prezidentimizning adabiyot, madaniyat, san’at va ziyolilar bilan bo‘lgan uchrashuvlari hamda madaniyat va san’at sohasini rivojlantiriga qaratilgan boshqa xujjatlarda belgilangan vazifalar doirasida tadqiqot olib borildi.

Mazkur tadqiqotda to‘plangan va o‘rganilgan materiallar –madaniy tadbirlarni tashkil etish orqali vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish haqida nazariy asoslarini yoritibgina qolmay, uni amalda qo‘llashning ham usullarini o‘ziga jamlagan. Madaniy tadbirlarni tashkil etish orqali insonlarning jamiyat taraqqiyotida tutgan o‘rnining beqiyosligi, ularda Vatanga muhabbat tuyg‘usini yanada orttirish, ona diyor uchun, unda yashayotgan insonlar hayotining farovonligiga erishish yo‘llari haqidagi fikr va mulohazalar mazkur tadqiqot mazmunidan o‘rni olgan. Bitiruv malakaviy ishida keltirilgan tadqiqotlardan

madaniyat va san'at muassasalarida tadbirlarni to‘g‘ri tashkil etishda, mukammal ssenariylar yaratishda foydalanish mumkin.

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati. Mazkur bitiruv malakaviy ishida madaniy tadbirlarni tashkil etish orqali insonlarda vatanparvarlik hissini yanada kuchaytirish, bu mavzuga oid madaniy tadbirlarni tashkil etishda qanday usul va vositalardan foydalanish kerakligi haqida to‘liq ma’lumotlar berishga harakat qilindi. Tadbirni tashkil etishda ijodiy va tashkiliy jarayonlar uyg‘unligiga erishish, “g‘oyaviy talqin” masalalariga jiddiy e'tibor berish, vatanparvarlik mavzusiga oid manbalardan unumli foydalanish nuqtai nazaridan yondoshilganligi mazkur bitiruv malakaviy ishining ilmiy ahamiyatini belgilaydi.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi. Ushbu bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki bob, to‘rtta paragraf, xulosa, glossariy hamda foydalaniladigan adabiyotlar ro‘yhatidan iborat.

I BOB. MADANIY TADBIRLAR ORQALI YOSHLARDA VATANPARVARLIK TUYG’USINI SHAKILLANTIRISH USULLARINING NAZARIY ASOSLARI

1.1.Vatanparvarlik tushunchasi va uning yoshlar ongiga singdirish mezonlari

Vatan – insonning tug‘ilgan, kindik qoni to‘kilgan joydir, bolalik, yoshlik davri o‘tadigan, ta’lim-tarbiya topadigan, safar qilsa, mudom qo‘msaydigan joydir. Vatanni sevish, uning ravnaqi yo‘lida xizmat qilish, uni yomon ko‘zdan, qora kuchlardan himoya qilish, uning sha’nini yuqori ko‘tarish – bularning barchasi siz-u bizning oldimizda turgan mas’uliyatli vazifalardandir. Vatan tushunchasi, uni sevish, ardoqlash, himoya qilish tuyg‘usi nafaqat insonda, balki boshqa maxluqotlarda ham bor. Vatanni yaxshi ko‘rish, Vatanni qo‘msash tuyg‘usi jonivorlarda ham bor. Baliq suvga, hayvon o‘zining iniga, hasharot uyasiga intiladi. O‘sha aqli yo‘q jonivorlar ham, hasharotlar ham o‘zining uyini taniydi, uni quradi, unda jufti bilan yashab, naslini davom ettiradi, zarur paytda uni himoya qiladi. Shunday ekan, aqlu zakovat, tafakkur ato etilgan, borliqdagi mavjudotlarning gultoji bo‘lgan insonda esa bu tuyg‘u yuksak darajada rivojlangan bo‘lishi lozim.

Shiddat bilan rivojlanib borayotgan davrda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ishlar ko‘lami kundan-kunga kengayib bormoqda. Davlatimiz rahbarining sayi-harakatlari, tashkbbuslari bilan yurtimiz hayotida misli ko‘rilmagan darajadagi taraqqiyotning pog‘onalarini ko‘rib guvohi bo‘lib turibmiz. Insonlarning tinch-hotirjam yashashi, ularning manfaatlarini himoya qilish, yurtimizni jahon arenasiga chiqarish, obro‘yini ko‘tarish, Prezidentimizning ta’birlari bilan aytganda, “xalqni rozi qilish” yo‘lida qilinayotgan barcha ishlar, islohotlar jamiyatimiz taraqqiyotida muhim strategik masala sifatida qaralmoqda. O‘zbekistonni yanada rivojlantirishning Harakatlar Strategiyasida belgilangan beshta ustivor yo‘nalishlari mazmunida ham shu yurtda yashayotgan xalqimizning moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini qondirish, ularning farovon turmush tarzini yaxshilash, yurtimizning jahon hamjamiyati oldida nufuzi, obro‘yini oshirish va boshqa masalalar turibdi.

Bunday ulug‘ ishlarni amalga oshirishda vatanparvarlik tuyg‘usi kuchli insonlarning fidoiyligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Vatanparvarlik deganda nimani tushunamiz?

Vatanparvarlik – deganda avvalo, ona zaminga muhabbat, uni sevish, ardoqlash va ravnaqi uchun g’amho’rlik qilish tushuniladi. Vatanparvarlik

jamiyatimizdagi barcha kishilarni millat va elatlarni birlashtiruvchi muhim omil ekanligi hammamizga ma’lum.

”Vatan” – arabcha so’zdan olingan bo’lib, “Ona yurt” degan ma’noni anglatadi. Vatan insonning kindik qoni to’kilgan, avlod va ajdodlari tug’ilgan joyi, ijtimoiy muhiti va inson, uning hayoti va ma’naviy tushunchalarni anglatadi. “Vatanparvarlik – deganda Vatanga sadoqat, unga xizmat qilish, yurt tinchligini asrash, Vatan ravnaqi uchun faol bo’lishga undaydigan ma’naviy – axloqiy fazilatlar tushuniladi. Vatanparvarlik – ota-bobolarimizdan meros qolgan zaminni sevish, yurtning o’tmishi va kelajagi, xalq urf-odatlarini, kuy-qo’shiqlarini, qadriyatlarini asrash va rivojlantirish demakdir”[3].

Vatanparvarlik g’oyalarini o’quvchilar ongiga singdirish oila, bog’cha, maktabdan boshlanadi. Bu jarayon bobolar o’giti, ona mehri, ota ibrati, ustozlar na’munasi orqali amalga oshadi. Vatanparvarlik g’oyalarini insonlar ongiga singdirishda adabiyot, tasviriy san’at, tarix, musiqa va boshqa fanlarning ahamiyati kattadir. Vatanparvarlik tuyg‘usini tarbiyalashni oila, bog‘cha, maktab paytalaridayoq boshlash kerak. Oliy ta’lim tizimida, ishxona, korxona, ko‘chada, bir so‘z bilan aytganda, inson qayerda bo‘lmasin, bu tuyg‘u unga hamroh bo‘lishi lozim. Bu tuyg‘u uni ezgulikka, insonlarga yaxshilik qilishga, Vatan uchun hech narsani ayamaslikni, hatto jonini tikishgayam qodir bo‘lgan fazilatlarni shakllantiradi.

Bu tuyg‘uni ayniqsa, yoshlik paytidanoq o‘zimiz bilib-bilmay shakllantirishga harakat qilamiz. Yoshlarning ta’lim-tarbiyasi har bir ota-onaning, o’qituvchi, tarbiyachining Vatan oldidagi muqaddas burchidir. Olib borilayotgan islohatlarning vazifasi Respublikamizda o’sib kelayotgan yosh avlodning orzu-istaklariga monand ta’lim tarbiyaning ham nazariy, ham amaliy muammolarini milliy qadriyatlar asosida to’g’ri hal etishga qaratilgan. Barkamol avlodni tarbiyalash g’oyat nozik masalalardan biri bo’lib, unga juda jiddiy yondashish kerak. Yosh avlodni dunyoqarashini shakllantirishda milliy istiqlol mafkurasidan kelib

[3]Safo Ochilning “Mustaqillik ma’naviyat va tarbiya asoslari” risolasidan.

chiqqan holda yondoshish maqsadga muofiqdir. Negaki, milliy mafkuraning bosh negizi yosh avlod ruhini tarbiyalashdagi bosh omillaridan biridir.

Yoshlar tarbiyasi masalasi davlatimiz siyosatining hozirgi kunda eng muhim strategik vazifalaridandir. Yoshlar tarbiyasi tarbiyalash va ularning shaxsini har tomonlama kamol toptirish barcha umumta'lim maktablari zimmasiga yuklatilgan. Bu vazifalar o'quvchilarda barcha qobilyatni o'sishiga, ijodiy intilishni vujudga keltirishga asosiy omil bo'lib hisoblanadi. Ilg'or g'oyalarni davrimizda roy berayotgan o'zgarishlarni, shuningdek, tarixiy mavzularni zamonaviy ruhda tushuntirish o'g'il va qizlarda g'oyaviy e'tiqodni ma'naviy dunyoqarashni tarbiyalash uchun boy manba bo'lib hisoblanadi. Shundagina yosh avlod ruhiga his-hayajonli ta'sir ko'rsatadigan ularda mardlik, jasurlikni, tashabbuskorlikni tarbiyalaydigan mustahkam milliy tarbiya tizimi tarkib topadi.

Vatanparvarlik tushunchasi koʻpincha harbiy faoliyatga nisbatan ishlatiladi. Bir jihatdan olib qaralganda, bu toʻgʻri. Ammo, biz bu tuygʻuni faqat harbiylarga nisbatan ishlatsak, biz vatanparvarlikning tor ma'noda qoʻllagan boʻlamiz. Vatanparvarlikni barcha faoliyat doirasida koʻrish maqsadga muvofiqdir.

Vatanparvarlik tarbiyasining dolzarbligi xalqaro vaziyatning hafsizligi, uning mudofo quvvati, qurolli kuchlarni mustahkamligi, milliy birdamlik, ahllik, hamdardlik kabi ma'naviy omillar bilan belgilanadi.

Oʻzbekiston fuqarosining vatanparvarligi – bu qayta oʻzgarishlar yoʻlini koʻrsatuvchi, koʻzlangan maqsaddan chetga chiqmaydigan yoʻlchi yulduz, ishonchli kompasdir. Oʻzbekistonga, uning yeri, tabiatiga, bu yerda yashayotgan xalqlarga muhabbat, oʻlkaning tarixi, madaniyati, an'analarini teran bilib olishga intilish, davlatning qudrati va yutuqlaridan faxrlanish, xalqimiz qismatiga tushgan qiyinchiliklar uchun qaygʻurish koʻp millatli oʻzbek jamiyatining muhim jipslashtiruvchi asosi hisoblanadi.

Xalqning vatanparvarlik his-tuygʻulari, uning ozodlikka va baxt-saodatga intilishi har bir oʻzbekistonlik uchun muqaddas mazmun kasb etayotgan mustaqil Oʻzbekistonning yangi davlat ramzlarida oʻz ifodasini topgan. Bunda davlatimiz ramzlari – bayroq, tamgʻa, madhiya Oʻzbekiston xalqining shon-sharafi, gʻururi,

tarixiy xotirasi va intilishlarini o‘zida mujassamlashtiradi. Mana shu ramzlarni e’zozlash – o‘zining qadr-qimmatini, o‘z mamlakatiga va shaxsan o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlash demakdir. O‘z mamlakati bilan fahrlanadigan inson juda ko‘p narsalarga qodirdir. Bu esa oilaning ham, o‘z Vatanining ham shon-shuhratini oshiradi.

O‘z oilasi, nasl-nasabi bilan fahrlanish vatanparvarlik tuyg‘usiga hamohangdir. Bu eng avvalo, oilaviy an’analarni avaylab saqlash va boyitish, ota-bobolarning muborak nomlariga dog‘ tushirmaslikka intilish, mehnati, bilimlari bilan nasl-nasab obro‘sini mustahkamlash, odamlarning hurmat-ehtiromiga sazovor bo‘lish istagidir.

Vatanga sodiqlik, vatanparvarlik o‘zining qudratli ildizlari bilan o‘z oilasining, avlod-ajdodlarining or-nomusiga, o‘z vijdoniga, burchga va o‘z so‘ziga sodiqlikka borib taqaladi. Kishilarimizning vatanparvarligi hamma vaqt sevimli xalqning shon-sharafi, qadr-qimmati, madaniyati va an’analariga ehtiyotkorlik bilan munosabatda o‘z ifodasini topib keldi. Ba’zida hayotda qiyin vaziyatlar bo‘ladi, ba’zan adolatsizlik va ranj-alam ezadi, lekin, jahl ustida ona Vatanni, vatandoshlarni haqorat qilish – bu borib turgan shakkoklikdir. Buni xalq aslo kechirmaydi. O‘zbek xalqning yuksak milliy qadr-qimmati va sof vijdonliligiga asoslangandir. Biz bundan keyin ham o‘zbeklarning milliy g‘ururini ma’naviy yuksaltiramiz, shu bilan birga umumiy Vatanimizda biz bilan birga yashovchi va O‘zbekiston Respublikasiga sadoqatli bo‘lgan boshqa barcha millatlar bilan birodarlikka intilamiz.

Milliy tuyg‘u inson uchun tabiiydir, chunki, u ota-onalardan meros bo‘lib, bola o‘z ota-onasiga, dunyoga aytgan birinchi so‘zidayoq ifodalanadi. O‘z xalqiga, uning an’analariga, tili va madaniyatiga muhabbat va hurmatni tarbiyalamasdan turib, xalqini, millatlarning butun jahon hamjamiyatida tenglardan biri sifatida idrok qiluvchi haqiqiy insonni, o‘z Vatanining jonkuyarini tarbiyalash mumkin emas. Vatanparvarlik, fuqarolar yakdilligi – barpo etilayotgan yosh va mustaqil O‘zbekiston davlati negizidir. Ayni shu narsa jamiyatni qayta o‘zgartirish yo‘lidagi

qiyinchiliklarni yengib o‘tishga, hamjihatlik va hamkorlikka erishishda yordam beradi.[4]

Respublikamizning birinchi Prezidenti I.Karimov tomonidan ilgari surilgan konseptual g‘oyaning ahamiyati shunda ediki, ular bir tomondan milliy shakllanishimizni, millatimiz va xalqimizning o‘zligini anglashda katta ahamiyatga ega bo‘lgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, uning umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligini mustahkamlash va uchinchi tomondan har bir insonning erkinligi, uning o‘zining ichki imkoniyatlarini yuzaga chiqarish uchun yangi shart-sharoitlar mavjudligini ular ongiga singdirish uchun amaliy ahamiyatga ega bo‘ldi. Zero, ongni o‘zgartirmasdan turib, na faqat eski tuzum asoratlaridan qutilish, shu bilan birga qurilayotgan jamiyat uchun fidoyilik ko‘rsatish ruhiyatini ham shakllantirib bo‘lmaydi.

O‘zbekistonni yanada rivojlantirishning Harakatlar strategiyasining IV bo‘limida “Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari”ga berilgan sharhning 4/5 - “Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish” bandida **“**Jismonan sog‘lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat’iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish”[5], deb berilgan vazifa aynan vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish, Vatan uchun xizmat qiladigan fidoyi insonlarni tarbiyalash, yoshlar tarbiyasi va ularning jamiyat taraqqiyotidagi faolligi haqidagi fikrlarimizni to‘ldiradi.

Vatanparvarlik tarbiyasi, madaniyat va san’at ta’limining asosini tashkil etadi. Bu tushunchani ommaga singdirishda madaniy tadbirlarning roli benihoya kattadir.

[4] Karimov I.A. O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li. Toshkent.: «O‘zbekiston» 1992.
[5] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 2017 yil 7 fevral, pf-4947-son farmonidan.

Madaniy tadbirlarda Vatan haqida qo'shiqlar, she'rlar, badiiy o'qish, boshlovchilarni so'zlari, qadriyatlarni ulug'lovchi, Vatanni madh etuvchi asarlar ijrosi tadbir ishtirokchilarida vatanparvarlik, yurtga sadoqat, milliy qadriyatlar va boshqa xususiyatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Buning uchun esa tadbirlar ssenariysini yaratishda manbalar tanlashda tadbir tashkilotchisi o'ziga xos mahorat va tajribaga ega bo'lishi lozim.

Vatan tushunchasi keng va tor ma'noalarda qo'llash mumkin. Keng ma'noagi tushunchasi: Vatan- bir xalq vakillari jamuljam yashab turgan, ularning ajdodlari azal-azaldan iqtiqomat qilgan hudud nazarda tutilsa, tor ma'nodagisi esa kishi tug'ulib o'sgan uy, mahalla, qishloq nazarda tutiladi. O'zbeklarda falonchi vatanli bo'ldi, deyilganda o'sha odam uy-joyli, boshpanali bo'ldi degan ma'no ham shu nuqtai nazardan aytilgan bo'lsa kerak.

Vatan tushunchasini juda ko'p insonlar turlicha ta'riflaydilar. Ammo, bu ta'riflarning mazmuni bir xil ma'nolarni anglatishi bilan o'ziga xosdir. Bizning diyorimizda yashab, ijod qilgan ajdodlarimizda ham Vatan tuyg'usi bilan yo'g'rilgan manbalarga duch kelamiz. Mir Alisher Navoiy, Amir Temur, Muhammad Zaxiriddin Bobur, Muqimiy, zamonaviy adib, yozuvchi va shoirlarimizning deyarli barchasi bu mavzuda jo'shib ijod qilganlar.

Alisher Navoiy ijodida Vatan tushunchasi keng ma'nolarda qo'llanilgan. Bir ta'rifida Vatan so'zini geografik ma'noda, ya'ni, tug'ilib, o'sib-ulg'aygan joy mazmunida tadbiq etgan. Masalan, shoir ustodi Sayyid Hasan Ardasherga yozgan she'riy maktubida:

Ki bo'lmoq vatan ichra dushvor edi,

Ko'ngulga jafo daf'i ozor edi, derkan, ona shahri Hirotni e'tiborga olgan. Ustod Maqsud Shayhzoda aytganidek, Navoiy «hatto Xuroson saltanatining yiroq viloyatlariga borganda ham o'zini «g'urbatda» his etgan», degan qarashlar mavjud. Navoiy 1465—66 yillarga qadar, asosan, Hirot va Mashhadda yashagan. She'rdagi «g'urbat» so'zidan ko'rinib turibdiki, bu she'rni u o'z vatani Hirotda emas, balki g'urbatda — musofirlikda, demak, Mashhadda yozgan bo'lishi kerak, degan taxminlar ham mavjud. «Navoiyning o'z tug'ilgan ona shahri Hirotdan, qavmu

qarindoshlaridan uzoq Mashhadda kechirgan yillari ancha mashaqqatli bo‘lgan bo‘lsa kerakki,— deydi professor Abduqodir Hayitmetov,— u «Majolisun nafois»da u yillarni eslab o‘zini «g‘arib» deb ataydi va kasal bo‘lib qolganda «bir buq’ada yiqilib qolganini aytadi». Tadqiqotchining taxminicha, ruboiy «shu vaqtlarda (ya’ni Mashhadda — I. H.) yozilgan bo‘lsa ajab emas». Demak, «g‘urbat» va «g‘arib» to‘rtlikdagi «belgi» so‘zlar bo‘lib, ruboiyning yaratilgan vaqti, bosh g‘oyasi va lirik qahramonning qayg‘uli holatini anglashga «ochqichidir. Darhaqiqat, xuddi shunday.

G‘urbatda g‘arib shodmon bo‘lmas emish.

Shu misraning o‘zi go‘yo tugal mazmunli she’r. Uni o‘qigan zahoti, yurtidan yiroqlardagi kishining qismati tasavvurda qariyb to‘la jonlanadi. Vatandan judolik— g‘urbat. G‘urbatda yashash — g‘ariblik. G‘arib — shodlikdan mahrum bir bechora. Ruboiyning oxirgi baytidagi obrazli qiyos Vatan va farzand o‘rtasidagi bog‘liqlikni chuqur isbotlaydi.

Hazrat Alisher Navoiy Vatan tushunchasi ona yurt, o‘rin tug‘ulib o‘sgan joy, maskan manzil ma’nolarida ishlaganlar. Shuningdek, Vatan atamasi badiiy adabiyotda ko‘chma ma’noda ko‘ngil mulkining maskani tarzida ham qo‘llaniladi.

Vatan tushunchasi tarix davomida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot munosabti bilan o‘zgarib, kengayib, rivojlanib, boyib kelgan. Masalan, ibtidoiy jamoa tuzumi sharoitida muayyan qabila yashagan joy o‘sha qabilaning vatani sanalgan. Jondosh va tildosh qabilalarning uzviy ittifoqidan elat paydo bo‘lgan, elat yashagan hudud el deb atalgan.

Barkamol avlod ta’lim va tarbiyasi bilan bog‘liq qarashlarni Hazrat Alisher Navoiyning hayoti va ijodiy faoliyatida ham uchratamiz. Ma’lumki, Navoiy ham ijodkor, ham amaldor sifatida el osoyishtaligini saqlash, qishloq va kentlarni obodonlashtirish, yoshlarni bilim olishga chorlash uchun amaliy sharoitlar yaratishda tinmas va tolmas tashabbuskor bo‘lgan. U o‘z asarlarida bu g‘oyalarni keng targ‘ib etgan. Navoiy asarlaridagi g‘oyalar, o‘z davrida ilgari surilgan va amalga oshirilgan tadbirlar mazmun va mohiyatini bugungi kunda yosh avlod tarbiyasi bilan bog‘liq tadbirlarda keng qo‘llashimiz zarur.

Tilga olinayotgan mavzuimiz g‘oyat serqirra va umuminsoniy ahamiyatga molik bo‘lib, har vaqt va har qachon o‘z dolzarbligini yo‘qotmaydi.

Xalq millat deb hisobnalishi uchun boshqa asos va omillardan tashqari xalqaro huquqning sub’ekti deb tan olingan mustaqil va suveren davlatiga ham ega bo‘lishi kerak. Shundan kelib chiqib aytsak, O‘zbekiston Respublikasi o‘zbek millatining vatanidir. Bu o‘rinda davlat va ona Vatan ayni bir ma’noni ifodalaydi, ya’ni O‘zbekiston Respublikasi deganimizda Vatanimizni tushunamiz, Vatan daganda O‘zbekiston Respublikasi idrok etamiz.

Amir Temurning bu tuyg‘uga nisbatan qarashlari o‘ta kuchli. Vatanni sevmoq iymondandir, deyiladi muqaddas kitoblarda. Ona tuproqni ardoqlamoq, uning har bir qarichini ko‘z qorachig‘idek asrash kishining o‘z yurtiga mehr-muhabbatidan darak. Tarixda Turon zaminini mustahkam qo‘rg‘ondek himoya qilgan, g‘animlarga siyosat va adolat bobida o‘rnak bo‘lgan ajdodimiz buyuk sarkarda Amir Temur ham ana shunday yurtsevar inson bo‘lgan. Vatanini yovlardan himoya qilish – uning umri davomidagi amalga oshirgan ishlarining eng ahamiyatlisidir.

Amir Temur davlati qurilishi, harbiy san’ati ko‘p asrlar davomida Sharqu G‘arb davlatlariga o‘rnak va andoza bo‘ldi. Uning zamonida madaniyat, ilmu fan, me’morchilik, tasviriy san’at, musiqa, she’riyat beqiyos rivoj topdi, xalqimizning ko‘p an’analari takomilga yetdi. Amir Temurning madaniyat va din ahliga ko‘rsatgan cheksiz mehr-muruvvati, ayniqsa, ibratlidir. Dunyoning qariyb yarmini egallagan bo‘lsa-da, u hamisha va har bir ishda adolat mezonlariga tayanib ish ko‘rdi va bu hislatlari bilan Yevropa hukmdorlariga o‘rnak bo‘ldi. Sohibqironning ko‘plab davlatlar bilan olib borgan yaqin qo‘shnichilik siyosati qator ilmiy tadqiqotlarda o‘z ifodasini topgan. Mustaqillik yillarida bu manbalar Amir Temur shaxsiga xolis va haqqoniy baho berish imkoniyatini yaratdi.

Sohibqiron ko‘p qirrali shaxs bo‘lishi bilan birga san’at va madaniyatni qadrlagan, mamlakat obodligi, yurt tinchligi, xalq farovonligi uchun jon kuydirgan, Bugungi kunda Prezidentimiz tomonidan olib borilayotgan ta’lim-tarbiya sohasidagi islohotlar, ma’naviyatimiz va qadriyatlarimizni tiklash, bunyodkorlik, aholi turmush

tarzini yanada farovonlashtirish yo‘lidagi say-harakatlar Sohibqiron tomonidan boshlangan ezgu ishlarning uzviy davomi sifatida katta tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Sohibqiron «Temur tuzuklari»da shunday yozadi: «Raiyat ahvolidan ogoh bo‘ldim, ulug‘larini og‘a qatorida, kichiklarini farzand o‘rnida ko‘rdim. Har yerning tabiati, har el va shaharning rasmu odatlari, mizojidan voqif bo‘lib turdim». «Har nekim mamlakat maslahati uchun aytdim, qulog‘ingizda tutinglar. Agar mening vasiyatimga amal qilib adlu ehson bilan olamni obod qilsangiz, ko‘p yillar davlat va mamlakat sizlarda qolg‘usidir»[6]. Asrlar osha avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan o‘lmas qadriyatlarimiz ifodasi bo‘lgan bu hikmatli so‘zlar qalblarimizda hamisha aks-sado berib turadi.

Vatanimiz va xalqimizning bir necha ming yillik tarixi mobaynida ajdodlarimiz tomonidan vatanparvarlik, fidoyilik, xalqparvarlik fazilatlarini yosh avlod ongiga singdirishga alohida e’tibor berib kelingan.

Qadimgi yozma yodgorliklar, xalq og‘zaki ijodi namunalari, dostonlar, rivoyatlarda tilga olingan, tasvirlangan voqea-hodisalar, ularning ishtirokchi va qahramonlari aks ettirilgan obrazlar fikrimizning dalilidir.

Bugungi kunda bu ma’naviy sarchashmadan yosh avlodni vatanparvarlik, insonparvarlik, fidoyilik an’analari ruhida tarbiyalash va ularning mohiyatini yosh avlod ongi va ruhiyatiga singdirishga e’tibor qaratilayotir.

Bir necha ming yil avval yaratilgan «Avesto» yozma yodgorligida xalqimizning zulmat, zo‘ravonlikka qarshi, yurt tinchligi va daxlsizligi, adolat hamda vatanparvarlik yo‘lida ko‘rsatgan qahramonliklari tilga olingan. Bundan tashqari, Mahmud Koshg‘ariy, Pahlavon Mahmud, Ahmad Yassaviy, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy, Xoja Ahrori Vali, Zahiriddin Muhammad Bobur singari xalqning o‘lmas farzandlari tomonidan yaratilgan asarlarda ham vatanparvarlik, xalqparvarlik, adolatparvarlik tamoyillarining bir umr eskirmas ko‘rinishlariga duch kelamiz. Bu borada, yuqorida ta’kidlaganimizdek, Sohibqiron Amir Temurning «Tuzuklar»ida tarbiya bobida ibratli hikmatlar va hayotiy xulosalar keltirilgan. Yosh

[6] “Temur tuzuklari”dan olingan.

avlod qalbida Vatan oldidagi burchga sodiqlik, do‘st va dushmanni anglash, matonat, axloqiy poklik singari xislatlarni shakllantirishga alohida e’tibor qaratilgan. «Tuzuklar»da Sohibqironni oqil, sabr-toqatli, hayot mashaqqatlari va bevafoliklarini chuqur tushunadigan donishmand sifatida qayta kashf etamiz. Tabiiyki, Amir Temur siymosi ham yoshlar tarbiyasida vatanparvarlik, do‘stlik, yurtga sodiqlik timsoli sifatida ko‘z o‘ngimizda har qachon gavdalanib turadi. Xususan, uning yuqorida tilga olingan asarda qayd etilgan «Tajribali, ishbilarmon va bilimdon vazir shunday bo‘ladiki, mamlakat obodonchiligini, raiyat va sipohning tinch-farovonligini, xazina boyligini doim ko‘zda tutadi. Davlat, saltanatga foyda keltirishdagi ishlarni bajarishga tirishib harakat qiladi. Saltanatga zarar yetkazadigan xatarli ishlarni bartaraf etishga molu jonini ayamaydi», degan purma’no so‘zlarini yodga olish joizdir.

Vatan hissi – shu Vatanning egasi bo‘lmish halqni bilishdan, uning qadriga yetishdan, nimalarga qodir bo‘lganini tan olishdan, buyukligini e’tirof etishdan boshlanadi. Vatan va xalq egizak, mushtarak tushuncha birisini xis etish uchun ikkinchisini bilmoq kerak. Vatan hissi – bu uning egasi bo‘lmish halqni sevmoq, hurmat qilmoq qadriga yetmoq va e’tirof etmoq demakdir. Vatan bu halqning o‘tmishi bugungi va kelajagidir. Bu uning madaniyati, ma’naviyati, ma’rifati, tili dini, fe’l-atvori, ota-bobolaridan qolgan oltin merosi tomirlarida gupurlab turgan ajdoddan avlodga o‘tib kelayotgan pokiza qoni, tarixidagi muhim bosqichlari, buyuk davlat qurish maqsadida olib borayotgan qurashidir.

Vatan beshikdan, o‘z hovlimiz, qishlog‘imizdan, o‘lkamizdan boshlanishi, tarixiy joyimiz ona-vatanimiz O‘zbekiston ekanligini chuqu iftihor bilan aytishga asosimiz bor. Bunday tinchlik siyosatiga asoslangan, insonlar qadrini hurmat qiladigan Vatan yer yuzida bormikan? Hadisi sharifda qayd qilingan “Vatan sevmoq iymondandir”, “ota yerim”, “ona yurtim”, “kindik qoni to‘qilgan yer”, “Ona Vatan” kabi tarixiy tushunchalar hayotda o‘z o‘rnini olib, ahamiyatini tiklamoqda. Biroq Vatanning haqiqiy farzandi bo‘lish, uchun uni sevish, qadrilashning, u bilan faxrlanishning o‘zi kofiya qilmaydi. O‘zini Vatan farzandi deb hisoblagan har bir inson uning moddiy, ma’naviy boyliklarini asrab-avaylashi, ularning yanada

ko‘paytirish, rivojlanishi uchun vatanning mudofaa qudratini mustahkamlashga, uning xalqaro obro‘- e’tiborining oshirishga o‘ta mas’uliyat bilan o‘zining munosib hissasini qo‘shib borishi zarur.

Vatanparvarlik halqimiz taraqqiyotini olg‘a siljitgan ota-bobolarimizni yaratuvchanlik ishining bevosita davomidir. Vatanga muhabbat –vatanparvarlikning asl ko‘rinishidir. Vatanni yurakdan his qilmoq va sevmoq kerak. Buning uchun sog‘lom aqlli va o‘tyurak bo‘lmoq lozim. Ingliz shoiri J.Bayron; «Kimki o‘z yurtini sevmasa u xech nimani seva olmaydi» degan edi. Abdulla Avloniy «Biz Turkistonliliklar o‘z vatanimizni jonimizdan ortiq suyganimiz kabi, arablar arabistonlarini, qumlik issig‘u cho‘llarini, eskumular shimol taraflarini, eng sovuq qor va muzlik yerlarni boshqa yerlardan ziyoda ko‘radilar. Agar suymasalar erdi, havosi yaxshi tiriklik oson yerlariga o‘z vatanlarini tashlab hijrat qilurlar edi. Bobolarimiz «O‘zga yurtida sulton bo‘lguncha, o‘z yurtingda cho‘pon bo‘l»,- demishlar.

Vatanni qalbin chuqur his qilish uchun ham, halqning vatanparvarlik namunalarini ko‘rsatishi uchun ham halq hur, vatan mustaqil bo‘lishi shart hisoblanadi. O‘zbekiston 1991-yil 31-avgustda Davlat mustaqilligini e’lon qilgach, Vatanning qadri ortdi, halqimizning qadri tiklandi. Shu bois mustaqillikning qadriga yetishimiz, uni e’zozlashimiz, mustahkamlab borishimiz kerak.

Vatan tuyg‘usi – bu aziz vatanimizni obod etgan, oddiy kishilarimizning fidokorona mehnatini yodda tutishdir. Vatan tuyg‘usi – bo‘ o‘z aql-idrok bilan jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo‘shgan qomusiy mutafakkirlarni yodga olishdir.

Vatan tuyg‘usi - bu musulmon dunyosi e’tirof etgan imon al-Buxoriy, at-Termiziyan – Nasabiy, as-Samarqandiy kabi allomarlar nomini yodga olishdir.

Vatan tuyg‘usi – bu islom ta’limoti rivojlanishiga bemisl hissa qo‘shgan (Bahovuddin Naqshband, Xoja Ahror valiy singari) o‘nlab buyuk zotlarni yodga olishdir. Vatan tuyg‘usi - bu Vatan himoya qilib, Vatan deya fido bo‘lgan (To‘maris, Shiroq, Spitamen, Qubro, Solihbek) larni eslashdir.

Vatan tuyg‘usi – bu mustamlaka tuzumiga qarshi bosh ko‘targan Duchki Eshon xotirasini unutmaslikdir.

Vatan tuyg‘usi- bu 20,30,40,50, va 80-yillarda qatag‘on qilingan minglab qurbon bo‘lgan millat vakillarini unutmaslikdir.

Vatan tuyg‘usi- bu aziz va go‘zal Vatanimizga yuksak e’tiqod bilan yashash, unga hamisha sadoqatli bo‘lishdir.

Vatanparvarlik tuyg‘usi haqida so‘z borganda uni bir-ikki og‘iz so‘z bilan ifodalashga ta’rif, vaqt yetmaydi. Bu tuyg‘uni yuqorida aytib o‘tganimizdek, nafaqat harbiy tushunchalarga bog‘laymiz, balki, shu Vatan uchun qilinayotgan barcha ishlarimizda bu xususiyat, bu hisning ufori hamisha ufurib turishi kerak bo‘ladi. Shu yurt ravnaqi uchun jonini berib, astoydil, fidokorona mehnat qilayotgan insonlar ham vatanparvardirlar. Agar berilgan topshiriqlar ijrosida buni nimaga keragi bor, menga nima, bo‘lsa bo‘lar, bo‘lmasa yo‘q, bir gap bo‘lar kabi so‘zlarni o‘ziga qurol qilib olgan insonlarga nisbatan bu tuyg‘u, bu tushunchani qo‘llab bo‘lmaydi. Vatanparvarlikni ham tarbiyalash orqali amalga oshirish lozim. Oila tarbiyasi, bog‘cha, maktab, litsey kollej, oliy ta’lim muassasalarida, turli tashkilotlarda, qo‘yingki, shu diyorda yashab, ishlab, faoliyat yuritayotgan insonlarga bu tuyg‘u ona sutidan boshlab, to umrining oxirigacha hamroh ekanligini unutmasligimiz lozim.

Vatanparvarlik tushunchasi avvalo, o‘z ona yurtimizga mehr-muhabbat, milliy qadriyat va an’analarimizga sodiqlik bilan chambarchas bog‘liq, dedik. Agar vatanparvarlik va milliy iftixor yoshlarda qanchalik kuchli bo‘lsa, tabiiyki, ularning ma’naviy kamoloti ham mustahkam va barqaror bo‘ladi. Vatanni sevmasdan, unga mehr qo‘ymasdan haqiqiy barkamol inson bo‘lish qiyin.

Vatanparvarlikni barcha sohalarda uforini sezib turishimiz lozim. Madaniyat, san’at sohasi ham insonlarda bu tuyg‘ularni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Masalan, musiqa san’atini olaylik: vatanparvarlikning inson ruhiyatida aks etishida musiqaning ham ahamiyati katta. Musiqa insonni ruhiy kechinmalarini qo‘zg‘aydi, jumladan, ko‘tarinkilikka, shodlikka, zavqlanishga, mushohada qilishga undaydi. Shu bois, musiqaning ushbu imkoniyatlari yunon olimlari Pifagor, Aristotel, Sharq mutafakkirlari Ibn Sino, Farobiy, Alisher Navoiy, Imom G‘azzoliy tomonidan yuqori baholangan.

Musiqa asarlari o‘z mazmuniga muvofiq bir necha uslub va janr guruhlariga bo‘linadi. Masalan, vals, alla, marsiya, marsh janrlari shular jumlasidandir. Ashula – cholg‘u, kuy, maqom yo‘llari, konsert, romans va boshqalar musiqaning estetik ta’sir o‘tkazish turlariga birlashadi. Musiqada maqom san’atining o‘rni beqiyos. Mazkur san’at turi milliy musiqaning negizini tashkil etadi. Bir so‘z bilan aytganda, maqom keng ma’noda o‘zbek xalq musiqasining qomusidir. Musiqa san’atining ushbu yunalishi uzoq tarixga ega. Uning rivojiga va bir nechta sho‘balardan iborat yaxlit falsafiy asar sifatida shakllanishiga ko‘plab shoiru olimlar, tasavvuf yetakchilarining hissasi qo‘shilgan. Asrlar mobaynida avaylab saqlanib kelinayotgan xalqimizning bu ma’naviy merosi YUNESKO tomonidan insoniyat nomoddiy ijodiyotining durdonasi deb atalishi, albatta, bizga g‘urur va iftixor bag‘ishlaydi.

Lekin afsuski, hozir ayrim yoshlar bu merosimizning ahamiyatini yaxshi bilishmaydi yoki umuman bu haqda to‘liq tushunchaga ega emas. Ular milliy yoki an’anaviy musiqa deb faqat o‘zbek tilida ijro etiladigan asarlarni tushunishadi. Vaholanki, bu kabi kuy va qo‘shiqlar ko‘pincha Yevropa yoki g‘ayri o‘zbek musiqalaridan tashkil topgan bo‘ladi. Ma’lumki, yigit-qizlar qalbiga turli xil nojuya holatlarni singdirishda musiqadan ham foydalanish mumkin. Albatta, bunga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi.

Milliy musiqani rivojlantirish ham o‘sha millat, o‘sha millat yashaydigan diyorni dunyoga tarannum qilishda katta rol o‘ynaydi.

Xulosa sifatida shuni aytish lozimki, vatanparvarlik hissi bilan yo‘g‘rilgan tushunchalarni o‘zida jam qilgan insonlar jamiyatimiz taraqqiyotida muhim rol o‘ynaydi.

1.2. Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash - davlat ijtimoiy siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri

Mustaqillikkacha bo‘lgan davr mobaynida Sho‘rolar tizimining ta’sirida bo‘lgan O‘zbekistonda xalqimiz ma’naviyatiga bolta urildi. Uzoqqa bormay, o‘zbek tiliga munosabatni olib ko‘raylik. Respublikada aholining to‘rtdan uch qismini o‘zbeklar tashkil etishi, qardosh millatlar vakillaridan iborat yana 15 foiz aholi o‘zbek tilini yaxshi bilishiga qaramay, o‘zbek tili O‘zbekistonda davlat tili emas edi. Hatto, o‘zbek tili va adabiyoti haqidagi dissertatsiyalar ham rus tilida yozilib, yoqlanar edi. Sho‘ro davrida millat avval arabiy, keyin lotin, undan so‘ng esa kirill yozuvi asosidagi alifbolarda savod chiqarishga majbur qilindi. Maqsad – xalqni o‘z o‘zanlaridan mahrum etish, merosidan ayirib qo‘yish, shu tariqa unga tarixini unuttirish edi.

Muqaddas dinimiz badnom qilindi, u bilan bog‘liq barcha qadriyatlarimiz, ziyoratgoh va qadamjoylarimiz toptaldi. Muqaddas masjid-u madrasa-yu xonaqohlar, hattoki, ma’daniy o‘g‘itlar saqlanadigan omborlarga aylantirildi. Holbuki, har bir xalq o‘z tarixiy ildizlariga suyangan holda ravnaq topadi. Mustaqillik yillarida bu to‘la-to‘kis tasdig‘ini topdi.

Ma’naviy qadriyatlarimiz toptaldi. Bizning buyuk ma’naviyat sohibi bo‘lgan xalq ekanimiz, jahon tamadduni ravnaqiga ulkan hissa qo‘shganimiz bilan hech kim hisoblashmadi.

Istiqlol tufayli, avvalo, ma’naviy erkimizni qo‘lga kiritdik.

Jafokash xalqimiz bir yuz o‘ttiz yil mobaynida milliy mustaqilligi va tarixiy davlatchiligini yo‘qotib, mustamlaka asoratida yashadi. Avval chor Rossiyasi, so‘ng esa qizil imperiyaning beadad zug‘umlarini ko‘rdi. Chekmagan azobi, kechirmagan uqubati qolmadi. Xalqning jahon tamadduni (sivilizatsiyasi) ravnaqiga ulkan hissa bo‘lib qo‘shilgan bag‘oyat boy tarixi beayov toptaldi. Millat o‘z kechmishidan uzib tashlandi. Xalq o‘z tarixi qolib, o‘zgalar tarixini o‘rganishga majbur qilindi. Milliy tarix odamlarga faqat va faqat qora bo‘yoqlar chaplangan holda o‘rgatildi.

Tarixidan ajratib olish uchun xalq, avvalo, tarixiy yozuvidan mahrum etildi, odamlar ota-bobolari bitib ketgan noyob kitoblarni o‘z ko‘zlari bilan o‘qiy olish baxtidan bebahra qoldi.

Mustamlakachilik siyosati tarixiy shaxslarga munosabatni izdan chiqardi, millatning o‘z ajdodlari bilan faxrlanishiga, biz shunday ulug‘ zotlarning farzandlari bo‘lamiz, deyishiga aslo yo‘l qo‘ymadi. Ko‘p ulug‘ odamlar nomi bulg‘andi, ular hayoti va faoliyatini istagancha qoralab ko‘rsatdi, ayrimlari haqida, hatto, og‘iz ochishga ham qo‘ymadi. Xalq Jaloliddin Manguberdi, Najmiddin Kubro, Amir Temur kabi Vatan, uning ravnaqi uchun kurashgan qanchadan-qancha ulug‘ zotlar, Imom Buxoriy, Imom Moturidiy, Qaffol Shoshiy, Abdulxoliq G‘ijduvoniy, Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband, Xoja Ahror Valiy kabi buyuk ajdodlari muborak nomini ham tilga olishga, qo‘rqib yashashga majbur qilindi.

Ba’zi sotqin kimsalar, imperiya malaylarining kasofati bilan o‘tgan asrning 80-yillarida «O‘zbeklar ishi», «Paxta ishi» degan soxta nomlar ostida O‘zbekistonga tashlangan gdlyanchi-ivanovchi desantchilar zulmidan yana qancha odam, qancha oila aziyat chekdi.

Ta’lim-tarbiya, axloq-odob borasida xalqning mentaliteti, asrlar mobaynida shakllangan o‘ziga xos jihatlari mutlaqo inobatga olinmadi.

Mustabid, ma’muriy-buyruqbozlik tizimi odamlar erkini bo‘g‘ib, ularda ijodkorlik, bunyodkorlik, intiluvchanlik fazilatlarini yo‘qotdi, o‘zbek xalqi ong-shuuridan **Vatan t**ushunchasini chiqarib tashlashga harakat qildi.

Respublikamizning Birinchi Prezidenti I.Karimovning tashabbuslari, sayi-harakatlari bilan mustaqillikka erishildi va bunday noma’qulchiliklar barham topdi. O‘zbek millatining g‘ururini ko‘klarga ko‘tarib, O‘zbekistonimizni dunyoga tanitdi.

I.Karimovning “Yuksak ma’naviyat –yengilmas kuch” asari aynan vatanparvarlik haqidagi asardir, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, vatanparvarlik tushunchasini faqat harbiy faoliyat bilan bog‘lasak, biz bu tushunchasi tor ma’noda ifodalagan bo‘lamiz. Keng ma’noda vatanparvarlik – jamiyat ravnaqi, yurt osoyishtaligi, xalq manfaati yo‘lidagi barcha jarayonlarni qamrab oladigan tushunchalar nazarda tutiladi.

I.Karimovning “Albatta, jahon – keng, dunyoda mamlakat ko‘p, lekin bu olamda betakror ona yurtimiz, O‘zbekistonimiz yakkayu yagona. Bu go‘zal yurt, bu muqaddas zamin faqat bizga atalgan. Mana shu ulug‘ tuyg‘u har birimizning

dilimizda jo bo‘lishi, hayotimiz mazmuniga aylanishini istardim”, degan so‘zlari vatanparvarlikning ma’no-mazmunini anglatgan bo‘lib, bu yurtni asrash, avaylash, mustaqillikni qadriga yetish, unda yashayotgan insonlarning moddiy va ma’naviy hayotini yaxshilash va O‘zbekistonni dunyo arenasi sahnasiga chiqarish kabi buyuk g‘oyalarni amalga oshirishga qaratilgan faoliyatni bildiradi.

I.Karimovning bu yo‘lda boshlagan ishlarini davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev tomonidan izchil davom ettirilmoqda.

Prezidentimiz, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni Shavkat Mirziyoyev harbiy islohotlarni amalga oshirish bo‘yicha vazifalarni belgilashda harbiy xizmatchilarning ma’naviy-ruhiy tayyorgarligiga, yoshlarning harbiy-vatanparvarlik tarbiyasiga alohida e’tibor qaratmoqda. Chunki vatanparvarlik tarbiyasi – O‘zbekistonga muhabbat va sodiqlik, uning tarixiy, milliy, madaniy va ma’naviy qadriyatlari, davlat manfaatlarini chuqur tushunish, uning qurolli himoyasiga shaxsiy mas’uliyat, suvereniteti va hududiy yaxlitligini ta’minlash borasidagi tarbiya demakdir.

Mazkur tadqiqotda vatanparvarlikning asl namunasi harbiylarga xosdir, deyish imkonini beradi. Darhaqiqat, harbiy faoliyatda vatanparvarlik tushunchasi eng muqaddas tushuncha, tuyg‘u sifatida qaraladi.

Xorijiy davlatlarda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tizimi davlat ijtimoiy siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanib, bu jarayonda til, davlat ramzlari, milliy audio, video va bosma mahsulotlar, milliy qahramonlar, milliy an’analar va qadriyatlar, davlat rahbariyatining xulq-atvori va davlat targ‘ibot tizimi kabilarga katta e’tibor qaratiladi.

Vatanparvarlik tushunchasiga har bir davlat, unda yashayotgan insonlar o‘z nuqtai nazari bilan qaraydilar.

AQShda targ‘ibot uchun davlat bayrog‘ini juda faol qo‘llashadi. Fransiya va Germaniya qonunchiligida chet tillardan foydalanish qat’iy tartibga solingan va chet tillardagi audiovizual mahsulotlardan foydalanish cheklangan. Daniyada jamiyatning etnik andozalari belgilangan. Ko‘p davlatlar Injil va Qur’on qoidalari

asosida yashaydilar. Xitoy, Shimoliy Koreya va Vetnamda juda qattiq davlat targ‘iboti faol qo‘llaniladi.

Polsha va Rossiyada aholining vatanparvarlik tarbiyasi sohasida ulkan ishlanmalar mavjud. Xususan, Polsha hukumati tomonidan «Ertangi kunning vatanparvarligi» («Patriotizm zavtrashnego dnya») davlat dasturi ishlab chiqilgan. Polshada vatanparvarlik tarbiyasi maktabgacha bo‘lgan yoshlar orasidan boshlanadi. Muzeylarga, milliy qahramonlar va qadriyatlarni tanishtiruvchi yodgorlik majmualariga ekskursiya uyushtiriladi. Shu tariqa bolalarning vatanparvarligi shahar, viloyat, mamlakat miqyosida shakllana boradi.

Internet ma’lumotlaridan turli mamlakatlarda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash to‘g‘risidagi ma’lumotlar e’tiborimizni tortdi. Masalan, “Rossiya Federatsiyasida yoshlarning vatanparvarlik tarbiyasi shaxsning shakllanishiga, urush va tinchlik vaqtida vatanparvarlik sifatlarini namoyon qilishga, fuqarolik majburiyatlarini bajarishga yo‘naltiriladi.

Rossiyada fuqarolarning vatanparvarlik tarbiyasi faoliyati quyidagi sohalarga bo‘linadi:

1. Harbiy-vatanparvarlik:

– Vatan himoyasi bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarishga, jamiyat va davlatga sidqidildan xizmat qilishga tayyorlikni tarbiyalash;

– Vatan himoyasi yo‘lida halok bo‘lgan jangchilar xotirasini abadiylashtirish.

2. Ilmiy-ma’rifiy:

– vatanparvarlik tarbiyasi mazmunini boyitish;

–ijtimoiy-gumanitar fanlarda vatanparvarlik yo‘nalishini kuchaytirish;

– har bir mutaxassislikni qo‘llagan holda Vatan tarixi bo‘yicha o‘quv kurslarini ishlab chiqish;

–bolalar, o‘smirlar va boshqa toifadagi Rossiya fuqarolarida vatanparvarlik tuyg‘ularining o‘ziga xos xususiyatlari shakllanishini aniqlash maqsadida gumanitar va tarbiyaviy dasturlarda izlanishlar (ekspertiza) o‘tkazish;

– vatanparvarlik tarbiyasi sohasida tadqiqotlar o‘tkazish va natijalarini amaliyotda qo‘llash.

3. Ma’naviy-diniy:

cherkovlar davlatdan bo‘linganligi sababli, qonunchilikda qayd etilmagan.

Harbiy-vatanparvarlik yo‘nalishida salmoqli ishlar mamlakat bo‘yicha mingdan ortiq bo‘limlari bo‘lgan nufuzli tashkilotlar, ya’ni Rossiyaning «Pobeda» («G‘alaba») tashkiliy qo‘mitasi, «Assotsiatsiya Vityazey» («Bahodirlar assotsiatsiyasi») harbiy-sport va vatanparvarlik tarbiyasiga ko‘maklashuvchi hududlararo bolalar-o‘smirlar ijtimoiy tashkiloti orqali olib borilmoqda.

Amerika Qo‘shma Shtatlarida aholining taxminan to‘rtdan uch qismi o‘z mamlakati uchun faxrlanish tuyg‘usini his etadi. Amerika oilalarining deyarli yarmi uylarida o‘z milliy bayrog‘ini osadi, haydovchilarning 15-20 foizi mashinalarini bayroqcha va boshqa ramzlar bilan bezaydi. O‘ndan to‘qqiz foizida mamlakat madhiyasi yangraganda faxrlanish tuyg‘usi paydo bo‘ladi.

Biroq shu bilan birga, AQShda vatanparvarlik tarbiyasi bo‘yicha muayyan davlat dasturi mavjud emas. Shunday bo‘lsa-da:

– vatanparvarlik tuyg‘usi fuqarolar ongiga bolaligidan ota-onalar, maktab, universitet va boshqalar tomonidan singdiriladi;

– Ommaviy axborot vositalari (OAV) orqali davlat ramzlari faol targ‘ib qilinadi. Mamlakat aholisi orasida davlat ramzlari tushirilgan mahsulotlar katta shuhrat qozongan;

– millatning «vatanparvarlik ruhi»ni qo‘llab-quvvatlash maqsadida AQShning Gollivud kinokompaniyasi imkoniyatlaridan keng foydalaniladi.

AQShda fuqarolarning vatanparvarlik tarbiyasi masalalarida harbiy-siyosiy xarakterdagi bolalar tashkiloti (skaut) va yoshlar tashkilotlari muhim rol o‘ynaydi.

Masalan, skaut tashkilotlari quyidagilar:

– o‘zining tarkibida 3,8 mln a’zolari bo‘lgan Amerika boyskautlari;

– yo‘l boshlovchi qizlar va skautchi-qizlar Butunjahon assotsiatsiyasi bo‘limlari (World Association of Girl Guides and Girl Scouts).

Yoshlar tashkilotlari:

– «Navqiron Amerika» tashkiloti;

– «Yosh amerikaliklar ozodlik uchun» tashkiloti.

Vatanparvarlik tuyg‘usini yoshlar o‘rtasida yanada yuksaltirish maqsadida AQShning davlat bayroqlarini ishlab chiquvchi yirik kompaniyalari 1x1,5 metr hajmdagi bayroqlarni bepul tarqatishni yo‘lga qo‘ygan.

Yaponiyada yoshlarning vatanparvarlik tarbiyasi sohasida olib borilayotgan ishlar diqqatga sazovor. 2002 yilda Yaponiya hukumati tomonidan «o‘z mamlakatiga muhabbat tuyg‘usi»ni tarbiyalash bo‘yicha o‘quv rejasi ishlab chiqilgan bo‘lib, o‘rta maktablarda olti yillik dastur joriy etilgan.

2003 yilda hukumat qaroriga asosan maktablarda vatanparvarlik mezonlarini baholovchi «Yaponiyada erkin so‘z va vatanparvarlik to‘g‘risida»gi tizim joriy etilgan.

2006 yilda Yaponiya parlamentining quyi palatasi tomonidan «Ta’lim to‘g‘risidagi qonun asosi» bo‘yicha qonunlar loyihasi qabul qilindi. Ta’lim to‘g‘risidagi yangi qonunda o‘qituvchilar majburiyatlariga boshlang‘ich sinflar o‘quvchilariga «vatanparvarlik tuyg‘usi va milliy qadr-qimmat» hissiyotlarini singdirish yuklatildi. Bugungi kunda mazkur qonun amaliyotda.

Xitoy OAVlarida so‘nggi yillarda vatanparvarlik mavzusidagi materiallar soni sezilarli darajada ko‘paygan, shuningdek, internetda va partiya matbuotida yoshlarga murojaatlar tez-tez berilmoqda. Mazkur yo‘nalishda Xitoy Kommunistik partiyasi, shu jumladan, Xitoy Kommunistik Yoshlar ittifoqi, Butunxitoy yoshlar federatsiyasi va mamlakat yoshlar tashkiloti federatsiyasi asosiy yetakchilardir.

Yoshlar orasida shunday nuqtai nazar ommalashib bormoqdaki, unga ko‘ra Xitoy ma’naviy qadriyatlariga G‘arb demokratiyasi zid. Xitoyning hozirgi asosiy vazifasi fikrlarni bildirish erkinligi emas, balki iqtisodiy islohotlarni o‘tkazish orqali xalqning jismoniy yashovchanligini ta’minlashdan iborat. Mamlakat yoshlari orasida Xitoyning dunyo miqyosida buyuk davlat sifatida shakllanishiga qiziqish ortgan.

Xitoyda vatanparvarlik g‘oyalarini singdirish maqsadida mamlakatdagi 1400 ta muzeyga bepul tashriflar uyushtirish yo‘lga qo‘yilgan. Bu faoliyat davlat homiyligida va partiya markaziy ko‘mitasining targ‘ibot bo‘limi ko‘magida Moliya

vazirligi, Madaniyat vazirligi va XXR madaniy merosini qo‘riqlash bo‘yicha davlat boshqarmasi tomonidan amalga oshiriladi.

Germaniyada harbiy xizmatdan tashqari davlat tomonidan boshqariladigan Vatanga xizmat qilishning yana bir necha turlari mavjud. Mamlakatda shunday ommalashgan davlat dasturlari borki, ular «ijtimoiy ko‘ngillilar yili» va «ekologik ko‘ngillilar yili»dir. Mazkur dasturlar maktab bitiruvchilarining yil davomida ijtimoiy va ekologik tadbirlarda ishtirokini ko‘zda tutgan. Bunda ishtirok uchun ko‘ngillilarga davlat tomonidan ish haqi to‘lanadi. «Ijtimoiy yil»dagi ishtirok uchun yoshlarga oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirishi uchun imtiyozlar beriladi.

Qozog‘iston Respublikasida vatanparvarlik tarbiyasi bo‘yicha Davlat dasturi qabul qilingan. Korxonalar va o‘quv muassasalarida davlat ramzlariga hurmatni tarbiyalashga yo‘naltirilgan tantanali tadbirlar joriy etilgan.Maktab dasturlarida «Fuqaroshunoslik» o‘quv fani mavjud. Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi sportning harbiy-amaliy turlarini rivojlantirish, harbiy qismlarda urush faxriylari ishtirokida mavzuviy uchrashuvlar, jangovar sharaf muzeylariga ekskursiyalar uyushtirish kabilar orqali o‘tkaziladi. Ommaviy axborot vositalarida vatanparvarlik va insonparvarlik yo‘nalishidagi voqea va hodisalarni yoritish ishlari kuchaytirilgan. Markaziy va mahalliy ommaviy axborot vositalarida kamida 30 foiz ko‘rsatuv va eshittirishlar vatanparvarlik mavzusida bo‘lishi belgilangan.

O‘zbekistonda esa bu alohida olingan sohalarda emas, balki, barcha jarayonlarni qamrab olgan holdagi faoliyat tushuniladi. Insonlarning vatanparvarlik tarbiyasi doimo har qanday davlatning diqqat markazida bo‘lib kelgan va u bugun ham ahamiyatini yo‘qotmagan. Negaki, “davlatning buyuk kelajagini, uning rivojlanishi va gullab-yashnashini faqatgina o‘z Vataniga sodiq, mamlakat tarixi va madaniyatini hurmat qiluvchi, o‘zini davlat manfaatlari uchun baxshida etishga tayyor haqiqiy vatanparvarlar belgilaydi.[7]”

[7]O‘zbekiston Qurolli Kuchlari akademiyasi ilmiy xodimi M.Mo‘minov tomonidan berilgan internet ma’lumotlaridan.

O‘zbekistonda vatanparvarlik tushunchasini yoshlar ongiga singdirishda juda keng qamrovlari ishlar davlat darajasida amalga oshirilmoqda. Vatanni sevish, uni asrash, avaylash, unga munosib inson bo‘lish, o‘z yurtini afzalliklarini ulug‘lash, kamchiliklarini bartaraf qilish yo‘lida tinimsiz mehnat qilish, fidoyilik, sadoqat, unga nisbatan mehr, oqibat munosabatida bo‘lish kabi tushunchalar bilan yo‘g‘rilgan bu tushuncha hozirgi kunda O‘zbekiston davlatining bosh masalalaridan bir sifatida qaralayotganligini asoslaydi.

Vatanparvarlik hissi haqiqatdan ham insonning ichida, “yuragi”da bo‘lish kerak. Bunga yuzaki yondoshgan, loqaydlik bilan qaragan insonlarga nisbatan bu tushunchani ishlatish to‘g‘ri emas. Vatanparvarlik Ona Vatani, oilasi, jamoasi, jamiyat uchun hamisha, har qanday sharoitlarga tayyor insonlarga nisbatan ishlatilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

2018 yil 23 fevral kuni “Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 140-sonli Qarori ham yoshlarda vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishda qaratilgan, oldimizda amalga oshirishimiz lozim bo‘lgan ishlar haqidagi xujjatdir.

Mazkur xujjatda: “Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga doir ishlar samaradorligini oshirish va faollashtirish, bu boradagi ta’lim-tarbiyaviy ishlarga mamlakatimiz fuqarolarini, davlat va nodavlat notijorat tashkilotlarini hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini yanada faol jalb etish va yoshlar ongiga vatanparvarlik, mardlik tuyg‘ularini singdirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

2. Quyidagilar Konsepsiyaning asosiy vazifalari etib belgilansin:

yoshlarni milliy g‘oya va Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbi va ongiga Vatan himoyasi sharafli va muqaddas burch ekanini chuqur singdirish;

qadimiy tariximiz va madaniyatimiz, jonajon Vatanimizning mustaqilligi va ravnaqi yo‘lida fidokorona kurashgan milliy qahramonlarimiz bilan faxrlanish, ularga munosib bo‘lish tuyg‘usini shakllantirish, milliy armiyamizning qudrati va salohiyatiga bo‘lgan ishonchni kuchaytirish;

milliy armiyamizga jismonan baquvvat va ma’nan yetuk yoshlar zarurligi, harbiy xizmat har bir O‘zbekiston fuqarosi uchun muqaddas burch ekani haqidagi tushunchani hamda bu boradagi nazariy-amaliy ko‘nikmalarni mustahkamlash;

yoshlarda yon-atrofimiz va jahonda ro‘y berayotgan siyosiy-ijtimoiy jarayonlarga milliy manfaatlarimizdan kelib chiqqan holda yondashish ko‘nikmalarini, turli ichki va tashqi tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish;

har qanday murakkab vaziyatlarda tezkor va mustaqil qaror qabul qilish, zamonaviy harbiy-texnika vositalaridan samarali foydalanish malakasiga ega yoshlarni tarbiyalash;

O‘zbekiston manfaatlarini nafaqat harbiy sohada, balki hayotning barcha jabhalarida himoya qilishga tayyor turish, yurt uchun fidoyi bo‘lish — bu bugungi kun talabi ekanini hayotiy misollar va ta’sirchan vositalar orqali yoshlar ongiga singdirib borish”[8] masalalari mazkur xujjatdan o‘rin olgan.

Ushbu Qarorni ijrosini ta’minlash maqsadida konsepsiya ishlab chiqilgan bo‘lib, unda:

1-bob-umumiy qoidalar;

2-bob. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning maqsadi va asosiy vazifalari;

3-bob. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tizimi va uning asosiy prinsiplari;

4-bob. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning usul va shakllari;

5-bob. Harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning bosqichlari va yo‘nalishlari,

6-bob. Harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash samaradorligi va mezonlari;

7-bob. Yakuniy qoidalar”[9]dan iborat.

[8]“Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 140-sonli Qaroridan.
[9] O‘sha manba.

Qisqacha mazkur xujjatning bandlari bo‘yicha ma’lumotlarni berib o‘tamiz.

Avvalo “konsepsiya” so‘zining ma’nosini bilib olamiz. “Konsepsiya” (lotinchadan –conceptio - "tushunish tizimi" degan ma’noni anglatadi.) Konsepsiya - “ba'zi bir tushunchalarni tushunish, ba'zi hodisalarni talqin qilish; asosiy nuqtai nazar, ularni qamrab olish uchun rahbarlik g'oyasi” kabi ma’nolarda ham qo‘llaniladi. Konsepsiyaga “muammolarni hal etish yo'l-yo‘riqlari tizimi” deb qarash ham mumkin. Kontseptsiya bu - harakat strategiyasini belgilaydi.

1-bob. Umumiy qoidalar. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash Konsepsiyasi – mamlakatimizda amalga oshirilayotgan yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy tamoyil va ustuvor yo‘nalishlari asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, hozirgi murakkab globallashuv davrida, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir sharoitda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bilan bog‘liq dolzarb vazifalar va ularni hal etish yo‘llari, davlat va nodavlat tashkilotlar, oila, mahalla, ta’lim-tarbiya institutlarining bu boradagi roli va ahamiyatini, o‘zaro hamkorligini milliy va xalqaro huquqiy normalarni hisobga olgan holda belgilab beradi.

Konsepsiyada yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga oid mavjud tizimga tanqidiy baho berilib, uni mamlakatimizni 2017–2021 yillarda rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi talablari asosida milliy va jahondagi ilg‘or tajribalar, bugungi O‘zbekiston hayotidagi real ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar bilan uyg‘un ravishda takomillashtirish masalasiga alohida e’tibor qaratiladi.

Mazkur Konsepsiyada yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalasiga jismonan va ma’nan sog‘lom avlodni tarbiyalashga oid yaxlit ta’lim-tarbiya tizimining uzviy va ajralmas bir qismi sifatida qaraladi.

Ona Vatanimizni ko‘z qorachig‘idek asrash, uning shuhratini dunyoga tarannum etish bilan bog‘liq eng muhim tushunchalar, hayotiy va professional ko‘nikmalarni ilmu ma’rifat asosida yoshlarning qalbi va ongiga ilk bolalik davridan boshlab singdirib borish va shu tariqa O‘zbekistonning haqiqiy vatanparvar fuqarolarini tarbiyalash Konsepsiyaning asosiy ma’no-mazmunini tashkil etadi.

II. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning maqsad va vazifalari. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash – millati, tili va kasbidan qat'i nazar, yoshlarda Vatanga sadoqat tuyg'usini shakllantirish, ularni o'z fuqarolik burchi va konstitusion majburiyatlarini bajarishga, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilishga qodir shaxslar etib tarbiyalashga yo'naltirilgan davlat organlari, jamoat birlashmalari va tashkilotlarining ko'p bosqichli, tizimli, maqsadli va muvofiqlashtirilgan faoliyatidir.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdan ko'zlangan asosiy maqsad – yoshlarda jamiyatning turli tarmoqlari, ayniqsa, harbiy soha bilan aloqador bo'lgan davlat xizmati turlarida faollik ko'rsatish, tinch va harbiy sharoitda Konstitusiya va harbiy burchga sadoqatli bo'lish, ularda o'z yurti va xalqi taqdiri uchun yuksak mas'uliyat va javobgarlik kabi muhim xususiyatlarni shakllantirishdan iborat.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda quyidagilar asosiy vazifalar etib belgilanadi:

yoshlarni milliy g'oya va O'zbekiston Respublikasiga, uning xalqi va Prezidentiga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbi va ongiga Vatan himoyasi sharafli va muqaddas burch ekanini chuqur singdirish;

qadimiy tariximiz va madaniyatimiz, jonajon Vatanimizning mustaqilligi va ravnaqi yo'lida fidokorona kurashgan milliy qahramonlarimiz bilan faxrlanish, ularga munosib bo'lish tuyg'usini shakllantirish, milliy armiyamizning qudrati va salohiyatiga bo'lgan ishonchni kuchaytirish;

milliy armiyamizga jismonan baquvvat va ma'nan yetuk yoshlar zarurligi, harbiy xizmat har bir O'zbekiston fuqarosi uchun muqaddas burch ekani haqidagi tushuncha hamda bu boradagi nazariy-amaliy ko'nikmalarni mustahkamlash;

yoshlarda yon-atrofimiz va jahonda ro'y berayotgan siyosiy-ijtimoiy jarayonlarga milliy manfaatlarimizdan kelib chiqqan holda yondashish ko'nikmalarini, turli ichki va tashqi tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish;

jangovar harakatlarga moslashish, har qanday murakkab vaziyatlarda tezkor va mustaqil qaror qabul qilish, zamonaviy harbiy texnika vositalaridan samarali foydalanish malakasiga ega yoshlarni tarbiyalash;

O‘zbekiston manfaatlarini nafaqat harbiy sohada, balki hayotning barcha jabhalarida, har bir qadamda himoya qilishga tayyor turish, yurt uchun fidoyi bo‘lish – bu bugungi kun talabi ekanini hayotiy misollar va ta’sirchan vositalar bilan yoshlar ongiga singdirib borish.

III. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tizimi va uning asosiy tamoyillari. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tizimi uzluksiz jarayon bo‘lib, u bir-biriga bog‘liq siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, g‘oyaviy-mafkuraviy, madaniy-ma’rifiy tadbirlar majmuasidan iborat.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning asosiy tamoyillari mazkur jarayonning ilmiy jihatdan asoslangani, uning muntazamligi, ta’lim-tarbiya va amaliyotning o‘zaro uyg‘unligi, tarixiylik va zamonaviylikning uzviy bog‘liqligi bilan ifodalanadi va quyidagilardan iborat bo‘ladi:

ilmiylik;

tarixiylik;

aniqlik va tezkorlik;

muntazamlik;

faollik;

ta’lim-tarbiya ishlarining uyg‘unligi;

tarbiya jarayonining izchilligi;

harbiy-vatanparvarlik tarbiyasida erishilgan ijobiy natija va yutuqlarga tayanish tamoyillari.

IV. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning usul va shakllari. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash usullari – yoshlarda zarur hayotiy bilim, ko‘nikma, mahorati va mustahkam irodani, jumladan, yuksak ma’naviy-axloqiy, jangovar ruh va fuqarolik fazilatini shakllantirishga qaratilgan, ularning ongi, ruhiyati va faoliyatiga ta’sir ko‘rsatadigan usul va uslublarni anglatadi.

Quyidagilar yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning asosiy usullaridan hisoblanadi:

ishontirish;

mashq qildirish va mustaqil ishlash;

kuzatish;

rag‘batlantirish;

o‘rnak ko‘rsatish, shaxsiy namuna va boshqalar.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash turli shakllarda, jumladan, ilmiy, amaliy anjumanlar, savol-javob kechalari, kitobxonlik, elektron o‘yinlar, mashhur kishilar bilan uchrashuvlar tarzida va boshqa shakllarda tashkil etiladi va ular ma’naviy-ma’rifiy ishlarning rang-barangligini ta’minlaydi, pirovard natijada jamiyatda sog‘lom ijtimoiy-ma’naviy muhitni shakllantirishga xizmat qiladi.

V. Harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning bosqich va yo‘nalishlari. Davlat yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tizimini tashkil etish, uning natijalarini monitoring qilib borishni ta’minlaydigan asosiy institut hisoblanadi. Davlat yosh avlodning tarbiya jarayonini oilada, maktabgacha ta’lim, umumta’lim maktablari, oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalarida, harbiy xizmat davomida, shuningdek, o‘zini o‘zi boshqarish organlari, turli davlat va jamoat tashkilotlari miqyosida tashkil etadi.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari asosan to‘rt bosqichda amalga oshiriladi:

Birinchi bosqich (3–7 yoshdagilar) atrofdagi olam, Vatan haqida dastlabki tasavvurlar paydo bo‘ladigan bosqich hisoblanib, unda oila va maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarga turli she’rlar, kuy va qo‘shiqlar o‘rgatish, multfilm va elektron o‘yinlar namoyish etish, rasmlar chizish orqali dunyoni anglash, davlat ramzlari (bayroq, gerb, madhiya) bilan tanishish asosida ularda ona yurtga muhabbatni shakllantirishni o‘z ichiga oladi.

Ikkinchi bosqichda (7–16 yoshdagi bolalar) o‘quvchilarning Vatanga muhabbati va sadoqatini mustahkamlash, ona yurt oldidagi farzandlik burchini

yuksak mas’uliyat bilan bajarish, ularda Qurolli Kuchlarimizga bo‘lgan ijobiy fikrlarni yanada kuchaytirish, harbiy xizmat nufuzini ko‘tarish, yoshlarning jismonan sog‘lom, ma’naviy yetuk, keng dunyoqarashli, mustaqil fikr yuritadigan barkamol inson sifatida shakllantirish kabi ezgu ishlarga da’vat etiladi.

Uchinchi bosqich (16 — 18 yoshdagilar) yoshlarda Vatanga va uning himoyasi uchun munosib xizmat qilishga ruhan va jismonan tayyorlikni ta’minlashga yo‘naltiriladi.

To‘rtinchi bosqich (18 — 30 yoshdagilar) yoshlarning jismoniy va ma’naviy qobiliyati, yetakchilik ko‘nikmalari va intellektual salohiyati, umumiy va professional malakasini oshirish, ularni o‘z ustida muntazam ishlash, sog‘lom hayot kechirishga undash va shunga erishishni nazarda tutadi.

Mazkur konsepsiyadan yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning asosiy manbasi sifatida foydalanish, undan oqilona foydalanish, unda belgilangan vazifalarni sidqidildan bajarish uchun imkoniyatlarni yaratish – har bir davlat xizmatchisining oldida turgan muhim vazifalaridandir.

Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. Shunday ekan, uni yovuz va tajovuzkor kuchlardan himoya qilish, asrab-avaylash shu zamin tuprog‘ida yashayotgan, musaffo havosidan bahra olayotgan har bir insonning muqaddas burchi hisoblanadi. Bugungi kunda bu teran haqiqatni chuqur anglagan yurtdoshlarimiz O‘zbekistonni yanada rivojlantirishning Harakatlar Strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish borasida ko‘tarinki ruhda mehnat qilib, o‘z vazifalarini sidqidildan bajarib kelmoqdalar. Barcha tizimidagi ta’lim muassasalarida ham qalblarida kuch va g‘ayrat balqib turgan yosh, jasur va mard o‘g‘il-qizlarga ta’lim-tarbiya berish jarayonida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ular ongu shuurida sadoqat, adolat, halollik va xalqqa sidqidildan xizmat qilishdek olijanob fazilatlarni qaror toptirish yo‘lida samarali ishlar amalga oshirilayotganligi fikrimizning dalilidir.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, intellektual salohiyatini yuksaltirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Bu borada keng ko‘lamli chora-tadbirlar ishlab chiqilib, hayotga tatbiq etilmoqda. Zero, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalasi – jamiyatda qonuniylik, jamoat tartibi va

fuqarolar xavfsizligini ta’minlash, farovon turmush tarzi, xalqqa xizmat qilish kabi tushunchalar bilan uyg‘unlikda amalga oshirilmoqdaki, bu esa o‘z navbatida yurtimiz ravnaqi, jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shishga asos bo‘lmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining 2016 yil 14 sentabrdagi “Yoshlarga oid davlat siyosati” to‘g‘risida”gi Qonun(O‘RQ-406-son)ning 5-moddasi (Yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari)da shunday deyilgan: “Yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg‘usi, bag‘rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta’sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo‘lgan qat’iy ishonch va qarashlarga ega qilib tarbiyalash”[10] masalasi alohida qayd etilgan.

Mazkur tadqiqotda mashhur insonlarning vatanparvarlik haqidagi fikrlarini berib o‘tishni joiz deb topdim:

Sahovatning eng buyuk jasurliklari Vatanga muhabbat tufayli yuzaga kelgan. (*Jan Jak Russo)*

Vatanparvarlik tantanavor hitoblar va umumiy gaplardan iborat emas, balki u Vatanga qizg‘in muhabbat hissi bilan ortiqcha dabdabalarsiz o‘z fikrini bildirish, faqat ezgulikda hayratlanmay, balki muqarrar har qayerda, har qanday vatanda ham bo‘ladigan yovuzlikni jinidan battar yomon ko‘rish demakdir. (*V. Belinskiy)*

Har kimning qalbida o‘z xalqining jajji qiyofasi yashaydi. (*Freytag)*

Vatanga muhabbat, avvalo, unga samimiyat, qizg‘inlik bilan, samarali istak bilan ezgulik va ma’rifat tilashdan iboratdir, uning mehrobiga hamma narsani, shirin jonni ham fido etish, undagi barcha yaxshi narsalarga qizg‘in hamdardlik bildirish hamda uning kamolot yo‘liga g‘ov bo‘layotgan narsalarga qahrli bo‘lmoqlikdir. (*N. Nekrasov)*

Bizga ota-onalar, bolalar, yaqin xesh-aqrabolar qimmatlidirlar; lekin muhabbat bobidagi barcha tasavvurlarimiz birgina «Vatan» otli so‘zda

[10]O‘zbekiston Respublikasining 2016 yil 14 sentabrdagi “Yoshlarga oid davlat siyosati” to‘g‘risida”gi Qonun (O‘RQ-406-son).

mujassamlashgandir. Vatanga nafi tekkudek bo‘lsa, — axir qaysi vijdonli odam uning uchun jon bermoqqa ikkilanar ekan? (*Sitseron)*

Ma’rifatli xalqlarning haqiqiy jasorati vatan yo‘lida qurbon bo‘lishga hozir ekanliklarida aks etadi.(*G. Gegel)*

O‘zingni vatanga qanchalar yaqin his etsang, uni shu qadar jonli vujud kabi aniqroq va sevibroq tasavvur qilasan.(*Blok)*

Faqat hamiyatsiz odamlargina vatan tuyg‘usining go‘zal va yuksakligini his etolmaydilar. ***(****I. Pavlov)*

Kim o‘z yurtini sevmasa, u hech nimani seva olmaydi. *(J. Bayron).*

Bu fikrlarni Vatan haqidagi eng sara fikrlardan, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, bizning yurtimizda vatanparvarlik faqat harbiylarga emas, balki bu diyorda yashayotgan barcha insonlarga nisbatan ishlatilishi bilan boshqa yurtlar qarashlaridan farq qiladi.

1992 yil 14 yanvar kuni mustaqil davlatimiz tarixida muhim tadbirga qo‘l urildi. Respublika Oliy Kengashining “O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan harbiy qismlar va harbiy o‘quv muassasalari to‘g‘risida”gi qarori bilan mamlakatimiz hududidagi barcha harbiy tuzilmalar mustaqil O‘zbekiston tasarrufiga o‘tkazildi. Davlatimiz rahbari tashabbusiga asosan qabul qilingan mazkur hujjat armiyamizni isloh qilishning uzoq muddatli dasturi ishlab chiqilishiga yo‘l ochdi. 1993 yilning 29 dekabrida 14 yanvar yurtimizda “ Vatan himoyachilari kuni” deb e’lon qilindi. Ushbu kun Respublikamizning barcha ta’lim muassasalarida, madaniyat va san’at maskanlarida, turli sohalardagi tashkilotlarda katta bayram, tantanasi sifatida nishonlanadi. Bunday tadbirlarda Vatanni madh etuvchi kuy va qo‘shiqlar, badiiy o‘qish, sahna ko‘rinishlaridan foydalanish bilan bir qatorda yoshlarga o‘rnak, namuna bo‘ladigan insonlarni taklif etish, ularning suhbatidan bahramand qilish, turli uchrashuvlar, ko‘rik-tanlovlar, mavzuli kechalarni tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa sifatida shuni aytish joizki, jamiyatda xizmat qilayotgan har bir davlat xizmatchisi Vatanga muhabbatni yuragiga joylab, taraqqiyot hamda tinchlik-osoyishtalik uchun jonbozlik, fidoyilik ko‘rsatishini davrning o‘zi taqozo qilmoqda.

II BOB. MADANIY TADBIRLARNI TASHKIL ETISH ASOSLARI

2.1. Madaniy tadbirlar tushunchasi va uni tashkil etishning nazariy asoslari

Davlatimiz rahbari shiddat bilan o‘tayotgan davrda barcha ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni o‘zida qamrab olayotgan faoliyatlarni tubdan isloh qilish, yaxshilash, takomillashtirish borasida tunu-kun mehnat qilib, xalqimizning manffatlarini himoya qilib kelmoqdalar. Buni shu kungacha olib borilayotgan davlatimiz siyosatida, amaliy bajarilayotgan ishlarda, xalqimizni rozi qilish borasida amalga oshirilayotgan ishlarda ko‘rishimiz mumkin. Bular ichida bir soha borki, bu jamiyatni boshqarishda katta kuch hisoblanadi. Bu – ma’naviyatdir. Ma’naviy-ma’rifiy, tarbiyaviy ishlar esa davlatimiz siyosatining iqtisodiy, siyosiy ishlar darajasidagi masalalaridan ekanligini barchamiz ko‘rib guvoh bo‘lib turibmiz.

Har qanday faoliyatda ham ma’naviy masalalar u yoki bu darajadagi tadbirlarni amalga oshirish asnosida ish ko‘radi. Bu oila, bog‘cha, maktab, litsey, oliy ta’lim, umuman shu zaminda yashab yurgan odamlar orasida ma’naviy, ma’rifiy, tarbiyaviy jarayonlarni tashkil etish bilan bog‘liq. Oilada tartibi buzilgan farzandga ota-ona tushuntirish ishlarini olib boradi. Ta’lim maskanlarida bunday bolalar bilan shu sohaga ma’sul insonlar tushuntirish ishlarini olib boradilar. Katta yoshdagilarga ham rahbarlar yoki boshqalar tomonidan tushuntirish ishlarini olib borish orqali ta’sir qiladilar. Xullas, qaysidir jarayonga nimanidir tushuntirish, uqtirish, uning salbiy tomonlarini ishontirish, isbotlash orqali ta’sir qilinadi.

Ta’sir qilish deganda nimani tushunamiz, u qanday amalga oshiriladi, degan savol tug‘ilishi tabiiy.

Bu asosan, tadbirlarni tashkil etish orqali amalga oshiriladi, desak to‘g‘ri bo‘ladi. Chunki, har qanday voqea va hodisalarni oldini olish uchun profilaktika ishlari amalga oshiriladi, ya’ni tushuntirish ishlari olib boriladi. Tushuntirish ishlarini esa oddiy ma’ruza sifatida emas, balki biron-bir mavzuga bag‘ishlangan kompozitsiyalar, konsertlar, sahna ko‘rinishlari va boshqa turli xil usullardan foydalanilgan holda tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Madaniy tadbir deganda nimani tushunamiz?

“Madaniy tadbirlar – aniq bir reja, maqsadni koʻzlagan holda tashkil etilgan ishlar koʻlamidir. Madaniy tadbirlar insonlarni tarbiyalaydi, ularni bir-birlariga yaqinlashtiradi, mehr-oqibat, yaxshilik, nafosat, goʻzallik kabi tushunchalarning mazmunini yanada kengroq oʻrganishga sabab boʻladi.

Juda koʻp holatlarda oʻtkaziladigan tadbirlarning saviyasi past darajada ekanligi - tadbir tashkilotchilarining madaniy tadbirlarni tashkil etish asoslarini bilmasliklari, tashkil etishning usul va vositlaridan toʻlaqonli foydalanmaganliklari, ijodiy hamda tashkiliy ishlarning uygʻunligiga erisholmaganliklari, sahnalashtirish ishlarini, gʻoyaviy talqin masalalarini yaxshi bilmasliklaridadir.

Inson tarbiyasida, ayniqsa yoshlar tarbiyasida madaniy tadbirlarning oʻrni muhimdir. Yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga nisbatan hurmat ruhida va axloq qoidalari asosida tarbiyalash, yosh avlodda hayotga qat'iy ishonch va qarashni, mentalitetimizga yot boʻlgan zararli ta'sir va oqimlarga qarshi tura olish qobiliyatini rivojlantirish barcha pedagoglar va madaniy-ma'rifiy ishlar mutassadilarining asosiy ustuvor vazifalardan hisoblanadi. Shu jihatdan ham madaniy tadbirlarni tashkil etish, uning dramaturgiyasini yaratishda ham tarbiyaviy ahamiyatga ega boʻlgan manbalarni qoʻllay olish, unda odob, ahloq, jamiyat taraqqiyoti, insonlarni bilimli, ilmli qilish, ma'naviyat bilan qurollantirish, komil insonni tarbiyalashga qaratilgan vazifalar dolzarbligini yoʻqotmaydi[11].

Oʻzbek tilining izohli lugʻatida *“tadbir”* - biron ishni, maqsadni amalga oshirish, roʻyobga chiqarish vositasi – shuning uchun puxta oʻylab tuzilgan, ishlab chiqilgan amaliy choralar majmuidir, deyilgan. Boshqa manbalarda “Tadbir”: 1. (boshqarish, idora qilish; tejamkorlik; chora, iloj, yoʻl-yoʻriq; harakat tarzi) degan maʼnolarda qoʻllaniladi. Amalga oshirish, roʻyobga chiqarish uchun yoʻl-yoʻriq va chora”; 2. “Maqsadni amalga oshirish yoʻlidagi ish, xatti-harakatning oʻzi”. 3.“Maʼlum maqsadda tashkiliy ravishda amalga oshiriladigan (bajariladigan) ish, ishlar[12]”, deb berilgan.

[11] B.Sayfullayev, V.Rustamov. Madaniy tadbirlarni tashkil etish mahorati. Toshkent, 2016y., 57b.
[12] Izohli lugʻat. el. variant.

Mazkur lug‘atda “tadbir” tushunchasi bilan bir qancha mazmundagi ma’nolar berilgan. Masalan, “tadbirkor” – 1.tadbir qiluvchi, tadbir izlovchi; 2.Ishlab chiqarishni yoki boshqa faoliyatni tashkil etuvchi, moliyalashtiruvchi, tijorat yoki sanoat korxonasini foyda olish maqsadida boshqaruvchi shaxs, mulkdor, deb berilgan.

Yoki, aytaylik, “tadbirli”- tadbir bilan, puxta o‘ylab ish qiladigan.

“Tadbirsiz” - o‘ylamasdan, reja va tadbir ko‘rmasdan ish tutuvchi; pala-partish, ma’nolarida qo‘llanilganligi bizning tadbirlar haqidagi fikrlarimizni boyitadi.

Tadbirlarni tashkil etish o‘ziga xos bosqichma-bosqich jarayonlarda amalga oshiriladi. Yuqori tashkilotlardan kelgan topshiriq, masalan, hukumat “Muhammad Yusuf”, “Zulfiyaxonimning” yoki biron bir shaharning yubiley tantanasini o‘tkazish to‘g‘risidagi topshiriq beradi. Bu topshiriq bo‘yicha o‘z navbatida madaniyat boshqarmasi, madaniyat bo‘limlari tomonidan tasarrufidagi tashkilotlarda aynan shu tadbirning o‘tkazilishi haqidagi vazifa, ko‘rsatmani oladi va shu jarayonlarni tashkil etish bo‘yicha ishlar tashkil etiladi.

Hammaga ma’lumki, “har qanday madaniy tadbir ijodiy va tashkiliy jarayonlarni amalga oshirishni taqozo etadi. Ijodiy ishlarga tadbirning ssenariy rejasini tuzish, ssenariysini yozish, sahnalashtirish, badiiy jamoalar bilan ishlash, tadbir o‘tadigan joyni bezash kabi ishlar kirsa, tashkiliy ishlarga esa ana shu ijodiy ishlarni amalga oshirish uchun qilinadigan barcha ishlar kiradi. Masalan, badiiy jamoalar bilan ishlash uchun mikrofonlar, texnik jihozlarni tayyorlash kabi vazifalar shular jumlasidandir. Yoki, sahnani bezash uchun rassom ijodiy nuqtai nazardan yondoshganda ham unga aynan duradgor kerak bo‘ladiki, u sahnani bezagi uchun kerakli jihoz yoki materiallardan foydalanadi, ya’ni reyka, taxta, mix va boshqalardan sahna uchun kerakli figura, shakl va boshqalarni tayyorlab beradi.”[13]

Darhaqiqat, madaniy tadbirlarni tashkil etishda tadbir tashkilotchisining ijodiy ishlarni boshqarish va tashkiliy ishlar uyg‘unligiga erishishi katta mahorat talab etadi.

[13] B.Sayfullayev, V.Rustamov. Madaniy tadbirlarni tashkil etish mahorati”. Toshkent, 2016,48b.

Madaniy tadbirlarni tashkil etishning nazariy va amaliy jihatlarini uyg‘unlashtirish, tashkilotchilik hamda ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirishga qaratilgan maqsadlar sari intilish – tadbir tashkilotchilarining asosiy funksiyalariga kiradi. Hozirgi kunda tadbirlarni to‘g‘ri, maqsadli tashkil etishga qaratilgan jarayonlarni qayta ko‘rib chiqish payti kelganligini vaqt qo‘rsatmoqda.

Tadbirlarni tashkil etishda mavzu tanlash muhim jarayon hisoblanadi. Har bir tadbir o‘zining xususiyati jihatidan pedagogik asosga ega bo‘lib, tarbiyaviy mazmun kasb etishi bilan ahamiyatlidir. Insonlarga ta’sir qilish, bola tarbiyasi, ibrat, ma’naviy ozuqa, bilimli – ilmli bo‘lish, ustozlarga, kattalarga xurmat, kichiklarga izzat, mehr-oqibat va boshqa barcha shu kabi tushunchalarni pedagogika sohasida yanada chuqur o‘rganiladi. Madaniy tadbirlarda esa pedagogik mahoratni qo‘llash katta samaralarga erishishga yo‘l olchadi. Tadbir tashkilotchisining ta’lim bilan tarbiya uyg‘unligiga erishishda uning pedagogik mahorati ham katta rol o‘ynaydi.

O‘tkaziladigan ham bir tadbirda tarbiya jarayoni ufurib turishi kerak. Tarbiya jarayoni –shaxsni shakllantirishga maqsadli yo‘naltirilgan, tarbiyalovchi va tarbiyalanuvchilar hamkorligi uchun maxsus tashkil etilgan, boshqariladigan va nazorat qilinadigan, o‘zining pirovard maqsadi sifatida shaxsni shakllantiradigan jarayondir. Tarbiya jarayonining eng asosiy natijasi –har tomonlama va uyg‘un kamol topgan yuksak ma’naviyatli shaxsni shakllantirishdir.

Madaniy tadbirlar ham –tarbiya jarayonining muhim bo‘laklaridan hisoblanib, asosiy maqsad qilib, barkamol avlod tarbiyasini birinchi navbatga qo‘yishi lozim. Yuqorida qayd etib o‘tganimidek, tarbiya – shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, ahloqiy, ma’naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayondir yoki boshqacha qilib aytganda insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo‘lgan xususiyatlarga ega bo‘lishini ta’minlash yo‘lidagi chora-tadbirlar yig‘indisi, desak ham bo‘ladi.

Vatanparvarlik mavusidagi tadbirlar uchun alohida kun belgilanmagan. Masalan, 8 mart Xotin qizlar kuniga bag‘ishlangan tadbirlardan bo‘lganligi uchun asosan ayollar mavzusiga e’tibor qaratiladi. Vatanparvarlik mavzusini qo‘llash esa o‘tkazilayotgan barcha tadbirlarimizning mazmunini boyitadi. Chunki,

vatanparvarlik haqida yuqorida aytib o‘tganimizdek, ulug‘ alllomalarimiz, ma’naviy merosimiz namoyondalari, shoir va yozuvchilar, tarixchi, siyosatchilar, qo‘ying-ki, shu diyorda yashab, ijod qilgan, faoliyat ko‘rsatgan insonlar jo‘shib so‘zlaganlar, ijod qilganlar.

Vatanparvarlik mavzusi hech qachon eskirmaydi. Bizning eng oliy pirovard maqsadimiz ham jamiyatimizdagi barcha insonlardagi vatanparvarlik hissini yanada kuchaytirishdir.

Vatanparvarlik mavzusiga bag‘ishlangan tadbirlarda “Vatan” so‘zini ko‘p ishlatish orqali tadbir ishtirokchilarini zeriktirib qo‘yish mumkin. O‘zbekning xonadoni, uning uy-joyi, oilasi, tog‘u-toshlar, u ishlaydigan korxona, tog‘laridan oqayotgan buloq suvlari, shirin shirmoy nonlari, palovi, xullas, o‘zbek millatiga xos, mos bo‘lgan mazmundagi tushunchalar ham uning effektini oshiradi, mno-mazmunini kengaytiradi.

Vatanparvarlik bevosita tarbiyaviy jarayonlar bilan bog‘liq. Barcha faoliyatlarda tarbiya jarayonlari birinchi o‘rinda turadigan masalalardandir.

Pedagogika fanida asosan bolalar tarbiyasi haqida so‘z boradigan bo‘lsa, madaniy tadbirlarda esa u yosh tanlamaydi. “Tarbiya” atamasi keng va tor ma’nolarda ishlatiladi. Keng ma’noda tarbiya inson shaxsini shakllantirishga, uning jamiyat ishlab chiqarishi va ijtimoiy, madaniy, ma’rifiy hayotida faol ishtirokini ta’minlashga qaratilgan barcha ta’sirlar, tadbirlar, harakatlar, intilishlar yig‘indisini anglatadi. Bunday tushunishda tarbiya faqat oila, maktab, bolalar va yoshlar tashkilotlarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlarni, balki butun ijtimoiy tuzum, uning yetakchi g‘oyalari, adabiyot, san’at, kino, radio, televideniye, matbuot va boshqalarni ham o‘z ichiga oladi. Shuningdek, keng ma’nodagi tarbiya tushunchasi ichiga ta’lim va ma’lumot olish ham kiradi.

Tor ma’noda tarbiya shaxsning jismoniy rivoji, dunyoqarashi, ma’naviy-axloqiy qiyofasi, estetik didi o‘stirilishga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyatni anglatadi. Buni oila va tarbiyaviy muassasalar hamda jamoat tashkilotlari amalga oshiradi. Ta’lim va ma’lumot olish tor ma’nodagi tarbiya ichiga kirmaydi, biroq har qanday tarbiya ta’lim bilan chambarchas bog‘liq holdagina mavjud bo‘ladi. Chunki

ta’lim va ma’lumot olish jarayonida shaxsning faqat bilimi ko‘payibgina qolmay, balki ahloqiy-ma’naviy sifatlari qaror topishi ham tezlashadi. Shuning uchun ham “Ta’limni tarbiyadan, tarbiyani esa, ta’limdan ajratib bo‘lmaydi – bu sharqona qarash sharqona hayot falsafasi”dir.[14] Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish – ta’lim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo‘lishi lozim”, – deb uqtiradi Respublikamizning Birinchi Prezidenti Islom Karimov.

Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, tarbiya - shaxsni shakllantirishga maqsadli yo‘naltirilgan, tarbiyalovchi va tarbiyalanuvchilar hamkorligi uchun maxsus tashkil etilgan, boshqariladigan va nazorat qilinadigan, o‘zining pirovard maqsadi sifatida shaxsni shakllantiradigan jarayondir.

Tarbiyaviy tadbirlar –turli xil moddiy va ma’naviy ehtiyojlarga javob beruvchi tarbiyaviy maqsadlarning yagona majmuasiga bo‘ysundirilgan, bir-biri bilan o‘zaro hamkorlik qiluvchi, o‘zida bir butun ta’limni ko‘zda tutgan tarbiyaviy ta’sir majmuidir. Ta’lim jarayoni alohida darslardan tashkil topgani kabi tarbiyaviy tadbirlardan tarbiya jarayoni vujudga keladi. Tadbirlar, tarbiyaviy ishlar – tarbiya jarayonining bir bo‘lagidir.

Turli mavzuda tashkil etiladigan tadbirlar, masalan, “Ichkilik va giyohvandlikka qarshi kurash”, “Jinoyatchilikka qarshi kurash”, “Diniy eksterimizm” mavzulariga bag‘ishlangan, gigiena yoki reproduktiv salomatlik bo‘yicha davra suhbatlari, TTJda va ijarada yashovchilar bilan ishlash kabi mavzu va rejalar madaniy tadbirlar tashkilotchilarining asosiy ishlaridan hisoblanib, yoshlar tarbiyasi, ularni bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazish, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, fidoyilik, mehr-oqibat kabi tushunchalarni kengaytirishga xizmat qilishi lozim. Shuni ham aytish joizki, yuqorida ko‘rsatilgan mavzularning barchasining negizida vatanparvarlik tushunchasi, hissi sezilib turishi lozim.

[14] I.Karimov. Yuksak ma’naviyat –yengilmas kuch. T., Ma’naviyat., 2008.38b.

Madaniy tadbirlar tashkilotchi avvalo, o‘z oldiga maqsad va vazifalarni to‘g‘ri qo‘yishi zarur. Chunki, madaniy tadbirlar – bu tarbiyaviy, ma’rifiy, ijodiy va dam olish ishlarining o’ziga xos birlashuvi natijasida vujudga keladiki, shu sababli ularda, eng avvalo, pedagogikadagi tarbiyaviy ishlarga oid bo’lgan va ma’rifiy (bilim berish, axborot tarqatish) faoliyatga mansub metodlarga murojaat qilmaslikning iloji yo’q. Shuningdek, ularda dam olish (hordiq chiqarish) va ijodiy jarayonni tashkil qilish metodlaridan foydalanilmasa, tadbirlardagi asosiy vazifalarning ba’zilari yo’qolib ketadi.

Barchamizga ma’lumki, madaniy tadbirlar kishilarning ishdan bo’sh, dam olish vaqtida ijodiy jarayonga qo’shilishi natijasida vujudga keladi. Eng avvalo, havaskorlar o’zlarining ishdan bo’sh vaqtlarida ijodiy jarayonga tadbir tayyorlashadi va buning natijasida keng ommani hordiq chiqarishga, qolaversa, ularni ham ijodiy faoliyatga tortishadi. Shuning uchun hordiq chiqarish va ijodiy jarayonga qo’shilish metodlarini bir-biridan ajratish qiyin.

Tadbir auditoriyasini faollashtirish madaniy hordiq chiqarishning eng yaxshi, qulay usullaridan bo‘lib, unda voqealarini yaxshi bayon etish, diqqatga sazovor ma’lumotlarni namoyish qilish, namunaviy faoliyatlarni aks ettirish, ilg’orlarni ma’naviy taqdirlash, qoloqlarni tanqid qilish va mazmunni ishonarli qilib ko’rsatish kabi holatlarning samarali bajarilishi ommani so’zsiz aktivlashtirib yuboradi. Lekin shu bilan birga, ommaviy tadbirlarda maxsus aktivlashtirish metodi ham qo’llanishi mumkin. Buning uchun tadbir qatnashchilaridan intervyu olish, ular bilan savol-javob uyushtirish, ba’zilarni so’zga chiqarib, fikrini bilish, viktorina uyushtirish va boshqa shu kabilarni bajarish mumkin. Ba’zi sahnaviy harakatlarni zal, omma ichiga ko’chirish ham auditoriyani aktivlashtirishga ko’maklashadi. Shuni unutmaslik kerakki, faqat aktiv auditoriya tadbir qatnashchisiga aylanishi mumkin. Tadbir qatnashchisiga aylantirish metodi – bu oily va eng samarali metod hisoblanadi. Mazkur usulni bajarish uchun ham boshqa barcha metodlardan samarali foydalanish bilan birga, maxsus harakatlardan foydalanish ko’zda tutiladi. Masalan, auditoriya ichida ashulalar aytish, ommaviy raqslar tashkil qilish, xalq oyinlaridan foydalanish,

umumiy qarorlar qabul qilish va boshqa harakatlar, so’zsiz, auditoriyani tadbir qatnashchisiga aylantirib yuboradi.

Har qanday tadbirni tashkil etishda rahbardan juda katta mehnat talab qilinadi. Shu o‘rinda aytib o‘tish joizki, tashkiliy ishlar ijodiy ishlar bilan bir xil darajada turadi. To‘g‘ri, ijodiy sharoitlarning ham o‘ziga xos ishlash uslublari bor, ammo, mana shu ijodiy jarayonni amalga oshirishning tashkiliy tomonlarini hisobga olish muhimdir. Oddiy misol qilib oladigan bo‘lsak, bitta musiqiy nomerni sahnaga olib chiqish uchun ham unga bir qancha tashkiliy ishlarni amalga oshirish kerak bo‘ladi, masalan, ansambl uchun joy tayyorlash, mikrofon qo‘yish, xonanda va musiqachilar uchun liboslar tanlash va h.k.z. Madaniy tadbirlarni uyushtirishning o’ziga xos xususiyatlari faqat uning o’ziga mansub tashkil qilish metodlarini talab qiladi. Tashkil qilish metodlari deganda, tadbirni vujudga keltirish uchun qo’llaniladigan usul, uslub va vositalardan foydalanish yo’llari tushuniladi. Qisqa qilib aytganda, bu metodlar ta’sirchan vositalardan foydalanish usullari bilan ko’proq bog’liqdir.

Jamiyat taraqqiyotidagi har qanday o‘zgarishlar, yangiliklar, ayniqsa, insoniyat rivojiga katta turtki beradigan jarayonlar, kashfiyotlar insonning ta'sirisiz ro‘y bermaydi. Buning uchun avvalo, asriy an'analar, tegishli shart-sharoit, tafakkur maktabi, madaniy-ma'naviy muhit mavjud bo‘lmog‘i kerak. Millatning tabiatida, qonida, nasl-nasabida ezgulik sari intilish mafkurasi va qonuniyati jo‘sh urishi lozim. Yoshlarni vatanparvarlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga nisbatan hurmat ruhida va axloq qoidalari asosida tarbiyalash, yosh avlodda hayotga qat'iy ishonch va qarashni, mentalitetimizga yot bo‘lgan zararli ta'sir va oqimlarga qarshi tura olish qobiliyatini rivojlantirish ustuvor vazifa hisoblanadi. Mazkur sohadagi muhim vazifalar quyidagilardan iborat:

-yosh avlodni mustaqillik g‘oyalariga cheksiz sadoqat ruhida tarbiyalash, ona Vatanga muhabbat tuyg‘usini, mamlakatimiz manfaatlarini himoya qilishda jasorat va fidokorlik fazilatlarini tarbiyalash borasida tashkiliy, targ‘ibot va tashviqot, ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo‘yicha chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqish va amalga oshirish;

-ma'naviy-ma'rifiy ishlarning mohiyati va shaklini tizimli, uyg‘un bo‘lishiga erishish, ularning aniq maqsadga yo‘naltirilganligini ta'minlash;

-turli hududlarning o‘ziga xos jihatlarini, turli qatlamdagi yoshlarning ehtiyoj va qiziqishlarini inobatga olgan holda nafaqat madaniy-ma'rifiy chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish va uni hayotga tadbiq etish;

-yosh avlodga ruhiy tayanch bo‘lib xizmat qiladigan, ularda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga nisbatan hurmat munosabatini tarbiyalaydigan buyuk ajdodlarimiz merosini chuqur o‘rganish;

-barcha ta'lim-tarbiya muassasalarida, korxona va tashkilotlar jamoalaridagi yoshlarning ongi va dunyoqarashi shakllanishiga ta'sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan kayfiyat va intilishlarni, ma'naviy-ruhiy muhitni muntazam o‘rganib borish.

-yoshlarda faol fuqarolik pozitsiyasi, siyosiy jarayonlarga ongli munosabatni, ma'naviy-axloqiy sohada turli tashqi va ichki tahdidlarga qarshi mustahkam mafkuraviy immunitetni shakllantirishda ijtimoiy loyihalardan foydalanish samarali natijalarga erishishning garovidir.

Shu o‘rinda ta'kidlash lozimki, bularning barchasining negizida madaniy tadbirlarning o‘rni nihoyatda salmoqlidir.

Madaniy tadbir – bu turmushimizning madaniy voqealariga oid, turli shakl va badiiy uslub asosida odamlarning ongi va ko‘ngillariga tarbiyaviy, ma'rifiy ta'sir ko‘rsatadigan jihatlar tushuniladi. Uning negizida eng muhim insonparvarlik masalalarining yechimiga ijodiy yondashishda harakatlantiruvchi kuch bo‘lib xizmat qiladigan o‘ziga hos, betakror, ijodiy, tashkiliy jarayonlar yotadi. Madaniy tadbirlar milliy qadriyatlar, an'analar, urf-odatlar, asosida vujudga kelgan bo‘lib, har bir odamni mehr-shavqatli, mehr-oqibatli bo‘lishiga da'vat etadi, yer yuzida barqarorlik, birdamlik va ahillik tabiatini uyg‘otadi, xalqlarning madaniyatlarini o‘zaro birlashtiradi, boyitadi, insonlarning millati, tili va dinidan qat'iy nazar, xalqlarni bir-biriga yaqinlashtiradi. Madaniy tadbirlarning asosiy vazifasi – milliy va dunyo madaniyatlarining eng yaxshi namunalarinin keng targ‘ib qilish va ommalashtirish, o‘sib kelayotgan avlodni, zamonaviy yoshlarni ma'naviy tarbiyalash, millatiga, tarixiga, insoniyatga bo‘lgan hurmatni uyg‘otish va saqlash

hisoblanadi. Zotan, xalqlarning o‘ziga hosligi va betakrorligini saqlash, tarixan shakllangan qadimiy milliy madaniyatlar, san'at va xalq ijodiyoti, yuz yillar davomida tarkib topgan milliy an'ana va urf-odatlarning o‘zaro yaqinlashuvi va bir-birini boyitishi uchun, dunyoda yashayotgan turli millat va elat vakillari o‘rtasida o‘zaro hurmat muhitini qaror toptirish uchun madaniy tadbirlarning ahamiyatini alohida ta'kidlash maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, madaniy tadbirlarda shaxs o‘z insoniy fazilatlarini shakllantira boshlaydi, yashirin, betakror, individual hususiyatlari, qobiliyatlarini kashf etadi, ularni o‘stiradi va rivojlantirib boradi, jamiyat, hayot bilan muloqotga kirishadi. Murakkab ijtimoiy voqelik sifatida bu tadbirlarning o‘ziga hosligi shundaki, u insoniyat avlodlarinig mehnati va bilimlarini o‘ziga singdirib oladi, saqlaydi, doimiy boyitib boradi va ularni kelgusi avlodlarga yetkazib beradi**.**

Madaniy tadbirlarning maqsad va vazifalariga ko‘ra bir qancha mavzularga asoslangan holda bo‘lib o‘rganish mumkin: Masalan:

Vatanimiz mustaqilligining ma'naviy asoslarini mustahkamlash, milliy qadriyatlarimiz, an'ana va urf-odatlarimizni asrab-avaylash, xalqimiz, ayniqsa, yosh avlod qalbi va ongiga ona yurtga muhabbat, istiqlolga sadoqat tuyg‘ularini chuqur singdirish masalalariga qaratilgan “Vatan yagona, Vatan muqaddas!”, “Hurlik timsolisan, ona Vatanim!”, “Mustaqillik –oliy ne'mat!”, “Ma'naviyatimiz va uning asoslari”, “Buyuk tariximizni o‘rganish – kelajagimizning asosi”, “Til millatning qalbi”, “Yurtimiz ravnaqi - salohiyatli yoshlar qo‘lida”, “Urf-odat va an'analarimiz ma'naviyatimiz ko‘zgusi”, “Millatlar do‘stligi yurt boyligi”, “Buyuk ajdodlarimizga munosib voris bo‘lamiz”, “Milliy an'ana va urf-odatlar”, “Ma'naviy tarbiya va milliy musiqa” kabi mavzularda tashkil etilgan madaniy-ma'rifiy tadbirlar.

-Yurtdoshlarimizni muqaddas islom dini va falsafasi, aziz avliyolarimizning ibratli hayoti, qutlug‘ qadamjolariga, boshqa diniy konfessiyalarga nisbatan hurmat-ehtirom va bag‘rikenglik ruhida tarbiyalash, jamiyatimizda sog‘lom turmush tarzi, millatlararo totuvlik, o‘zaro mehr-oqibat muhitini mustahkamlash bo‘yicha ma'naviy-ma'rifiy dasturlarni amalga oshirishga yo‘naltirilgan tadbirlar “Millatlararo birodarlik – azaliy odat”, “Yagona oila farzandlarimiz”, “Shu aziz

vatan barchamizniki”, “Do‘st bilan obod uying”, “Biz yagona oilamiz!”, “O‘zbekiston – umumiy uyimiz!” mavzularida do‘stlik bayramlari, respublikamiz, shaharlarimizning tarixiy qadamjolari, muqaddas yurtimizning, millatimizning shonu shavkati bo‘lgan maydonlarimizga ekskursiyalar tashkil etish;

-Insonlarning huquqlari hamda manfaatlarini himoya qilishga, jinoyatchilikka qarshi kurash samaradorligini oshirishga qaratilgan madaniy tadbirlar “Bosh qomusimizni o‘rganamiz” turkum tadbirlaridan “Konstitutsiya va o‘zbek milliy davlatchiligi an'analari”, “O‘zbekiston – suveren demokratik Respublika”, “Davlat – bu xalq hokimiyati”, “Davlat hududi mustaqillik nishonasi”, “Til – davlat belgisi”, “O‘zbekistonning davlat ramzlari”, “Xalq hokimiyatchiligining asosiy shakllari”, “Demokratiya va inson huquqlari”, “Ijtimoiy adolat va qonunchilik”, “Konstitutsiya va qonun ustuvorligi”, “Konstitutsiya – huquqning asosiy manbai” kabi mavzularni qamrab olishi mumkin.

-Sportga muxabbat, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qiluvchi “Biz sog‘lom avlodlarmiz”, “Asrimiz pahlavonlari”, “Sog‘lom hayot – sog‘lom kelajak”, “Hamisha sog‘lom bo‘l bolajon”, “Avlodlari sog‘lom yurt qudratli bo‘lur” kabi mavzularda o‘tkazilayotgan sport va san'at bayramlari, “Chekish zararli illat”, “Voyaga yetmaganlar sog‘lom turmush tarzi uchun” kabi mavzulardagi aksiyalar, shuningdek, yosh sportchilar ishtirokida turli madaniy-ma'rifiy tadbirlar va sport tomoshalari,, sport ustalari, murabbiylar, fan va san'at namoyondalari, tibbiyot va huquq-tartibot xodimlari bilan uchrashuvlar o‘tkazilishi maqsadga muvofiqdir.

-Respublika miqyosida o‘tkazilib kelinayotgan “Ekologiya va xalq salomatligi”, ekofestival, “Inson va tabiat”, “Tabiat va jamiyat”, “Toza muhit – sog‘lom avlod garovi” kabi tadbirlar yoshlar va voyaga yetmaganlar ishtirokida tashkil qilinib, ular e'tiborini hozirgi kundagi ekologiya muammolariga tortishga, ona tabiatni asrab-avaylashga qaratilmoqda. “Tabiat manzaralari musavvirlar ijodida”, “Gullar olami”, “Tabiat – ijodkor”, “O‘zbekiston tabiati”, “Qushlar bizning do‘stimiz”, “Antiqa o‘simliklar dunyosi” kabi mavzularda ko‘rgazmalar, “Bog‘ning yashil tabiati”, “Bog‘ning jonli burchagi” mavzularida bog‘ hududi bo‘ylab sayllar tashkil etish;

-Bolalar uchun o‘tkaziladigan taniqli yozuvchi-shoirlar, qo‘shiqchi, teatr artistlari, mo‘yqalam sohiblari, bastakorlar, amaliy san'at va milliy hunarmandchiligimiz ustalari bilan o‘tkaziladigan uchrashuvlar hamda “She'riyat bo‘stoni”, “Musiqa sehri”, “Go‘zallikka talpingan qalblar”, “San'at g‘unchalari”, “Quvnoqlar davrasi”, “Yoshlar ovozi”, “Raqs malikalari” kabi mavzulardagi badiiy kechalar, “Yangi avlod”, “Kelajak ovozi” kabi festivallar farzandlarimizga estetik tarbiyani singdirish va go‘zallik, qolaversa, san'at olamiga bo‘lgan muhabbatni yuraklarga jo qilishda alohida ahamiyatga ega.

Yuqorida ta'kidlab o‘tganimizdek, madaniy tadbirlarda asosan og‘zaki, ko‘rgazmali, texnik, matbuot hamda san'at vositalari qo‘llaniladi. Bu kabi vositalarning har biri o‘ziga xos usullar, xususiyatlar va shakllarga egadir. Og‘zaki vositalar ma'ruzalar, suhbatlar, turli ma'lumot va axborot xabarlari, savol-javob kechalari tashkil qilib o‘tkaziladi. Ko‘rgazmali vositalarda esa turli mavzulardagi plakatlar, maxsus tayyorlangan ko‘rgazma vositalari, shior va chaqiriqlar, diagramma va ma'lumot ko‘rsatkichlaridan, texnik vositalarda esa ovoz kuchaytirish apparatlari, radio, televidenie, kino, video va audio apparatlari, minidisk, magnitofon va fotoapparatlardan foydalanish mumkin. Voyaga yetmaganlar bilan ishlash va ular uchun turli tadbirlarni tashkil qilib o‘tkazishda, yuqorida ko‘rsatilib o‘tilgan vositalardan tashqari rang-barang shakllar ham qo‘llaniladi. Shuni ham aytib o‘tish kerakki, o‘tkaziladigan tadbirlarning usul va shakllari vaqtlar o‘tgan sari zamonaga moslashib yangilanib boraveradi.

Madaniy tadbirlarni tashkil etishda ta’sirchan vositalardan unumli foydalanish tadbirning salohiyatini ko‘taradi, saviyasini oshiradi va badiiyligini ta'minlaydi. Ammo bu vositalardan foydalanish tadbir tashkilotchilardan boy va ijodiy fantaziyani talab qiladi.

Vatanparvarlik mavzusiga oid madaniy tadbirlarni tashkil etishda tadbir ishtirokchilarini kontingentiga qarab ham repertuar o‘zgarishi mumkin. Bu mavzu faqat yoshlar yoki qariyalar uchun emas, balki hamma uchun ham qiziqarlidir. Tadbir uchun tanlangan manbalar vatanni madh etuvchi, yurtimizning muvaffaqiyatlarini kuylovchi, bunda yashaydigan insonlarni kelajakka ishonch

ruhida tarbiyalashga qaratilgan she’r, qo‘shiq, raqs va san’atning boshqa turlaridan unumli foydalanish tadbirning saviyasini oshirishga katta ta’sir ko‘rsatadi.

Xulosa sifatida shuni aytib o‘tish lozimki, vatanparvarlik mavzusi hech qachon eskirmaydi. Bu mavzudagi tadbirlarning mazmunida yuqorida aytib o‘tganimizdek, Vatanni sevish, uni ardoqlash, mustaqillikning qadriga yetish, xalq farovonligini ta’minlash va boshqalar yotadi.

2.2. Madaniy tadbirlarni tashkil etishda qo‘llaniladigan usul va vositalar

Har qanday tadbirni tashkil etishda uning asosida tarbiyaviy mavzular, tarbiyaviy talqin yotishi zarurligi haqida yuqorida aytib o‘tgan edik. Chunki tadbirlar insonlarga ma’naviy ozuqa berishga, ularning dam olish ehtiyojlarini qaratishga, ertangi kun ish jarayonida samarali mehnat qilishlari, aniq bir maqsad qo‘yilgan holda biron-bir mavzu ustida hamkorlikda ishlash, tushuntirish, axborot berish va boshqa shu kabi ishlarni o‘zida jamlagan holda tashkil etilishi zarur. Buning uchun madaniy tadbirlar tashkilotchi avvalo, o‘z oldiga maqsad va vazifalarni to‘g‘ri qo‘yishi zarur. Tadbirni tashkil etish vazifasini olishi bilan rahbar ishni nimadan boshlaydi?

Madaniy tadbirni maqsadli, samarali va to‘g‘ri tashkil etishda turli uslub va vositalarning to‘g‘ri tanlanishi katta ahamiyat kasb etadi.

Tadbirlarni tashkil etish uchun avvalo aniq maqsadlarni belgilab olish muhimdir. Ko’zlangan maqsadga erishish uchun bajariladigan har bir ish jarayoni, jumladan, madaniy tadbirlarni tayyorlash jarayoni ham, kerakli va ma’lum yo’l-yo’riqlarni, usul-uslublarni yoki metodlarni qo’llashni talab qilladi. Belgilangan tadbirni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun qanchalik samarali metodlar topilsa, uni amalga oshirish jarayoni shunchalik oson bo’ladi. Shuning uchun madaniy tadbirlar tashkilotchisi metodlar haqidagi ta’limotni bilishi, ularni tanlashni va foydalanish yo’llarini mukammal o’zlashtimog’i kerak.

“Metod” so‘zi –“bayon qilish”, “bajarish usuli” degan ma’noni bildiradi. Uning zamonaviy ma’nosi ma’lum faoliyatda maqsadga erishish uchun topilgan, bajarilayotgan va amalga oshirilayotgan usul, yo’l-yo’riq demakdir. Madaniy tadbirlar ko’p qirrali faoliyat bo’lgani uchun, unda juda ko’plab metodlardan foydalaniladi.

Professor U.Qoraboyevning “Madaniy tadbirlar” kitobida “Madaniy tadbirlar – bu tarbiyaviy, ma’rifiy, ijodiy va dam olish ishlarining o’ziga xos birlashuvi natijasida vujudga keladi”[15]. Shu sababli ularda, eng avvalo, pedagogikadagi tarbiyaviy ishlarga oid bo’lgan va ma’rifiy (bilim berish, axborot tarqatish) faoliyatga mansub metodlarga murojaat qilmaslikning iloji yo’q. Shuningdek, ularda dam olish (hordiq chiqarish) va ijodiy jarayonni tashkil qilish metodlaridan foydalanilmasa, tadbirlardagi asosiy vazifalarning ba’zilari yo’qolib ketadi.

U.Qoraboev o‘zining “Badiiy ommaviy tadbirlar” kitobida ushbu soha bo‘yicha ish olib borishda quyidagi metodlardan, ya'ni, tarbiyaviy, ta’limiy, hordiq chiqarish va ijodiy jarayonni tashkil qilish, tashkiliy metodlardan foydalanish maqsadga muvofiqligini aytib o‘tadi**[16]**. Ish jarayonida bu metodlar bir-birini to’ldirib, o’zaro bog’lanib ketadi.

Xozirgi kunda olib borilayotgan, tashkil etilayotgan barcha jarayonlar ta'lim va tarbiya asosiga qurilgan desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Davlatimiz rahbari tomonidan qabul qilinayotgan dasturlarimizning asosini ham mana shu ikki jarayon asosida tuzilgan deyishimiz mumkin. Sababi, yoshlar tarbiyasi, ma'naviyat masalalari, ta'lim berish kabi vazifalar davlatimiz tomonidan ishlab chiqilayotgan qaror, farmon va farmoyishlarida o‘z aksini topganligi barchamizga ayon. Shu bois, ta'lim va tarbiya masalalari davlatimiz siyosatining ustivor vazifalaridan ekanligini barchamiz to‘g‘ri anglashimiz zarur.

Respublikamizning birinchi Prezidenti I.Karimov ”Ma'naviyatni shakllantirishga bevosita ta'sir qiladigan muhim hayotiy omil –bu ta'lim –tarbiya

[15] U.Qoraboyev. Madaniy tadbirlar. T., 2002.
[1] U.Qoraboev, “Badiiy ommaviy tadbirlar”, O‘qituvchi nashr., 1986 y, 59b
[2] I.Karimov “Yuksak ma'naviyat –engilmas kuch” T, 2008, 60 b.
[3] I.Karimov “Yuksak ma'naviyat –engilmas kuch” T, 2008, 62 b.

tizimi bilan chambarchas bog‘liqdir”, deb aytganlari aynan mana shu sohaning vazifalarnini to‘g‘ri anglashga undaydi.[17] Shu jihatdan ham tarbiya masalasi barcha masalalardan yuqori turishliklarini anglash qiyin emas. “Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo‘lmaydi –bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasidir. Bu haqda fikr yuritganda, men Abdulla Avloniyning “Tarbiya biz uchun yo hayot –yo mamot, yo najot –yo halokat, yo saodat – falokat masalasidir” degan chuqur ma'noli so‘zlarni eslayman”,[18] degan so‘zlari ta'lim va tarbiya sohasining o‘ta muhimligini yana bir bor ta'kidlaydi. Madaniy tadbirlarlarni tashkil etishdan asosiy maqsad ham insonlarga to‘g‘ri tarbiya berishdir. Madaniy tadbirlar-bu, eng avvalo, tarbiyaviy jarayon bo’lgani uchun ularda pedagogikaga oid tarbiyaviy metodlardan foydalanish qonuniydir. Lekin bu ularni to’g’ridan-to’g’ri , ko’r-ko’rona qo’llash, degan gap emas.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev har bir chiqishlari, nutqlarida nafaqat O‘zbekistonda hatto xorij davlatlaridagi safarlar davomidagi nufuzli anjumanlardagi chiqishlarida ham albatta yoshlar tarbiyasiga alohida to‘xtalib o‘tishlari fikrimizni to‘ldiradi. Davlatimiz rahbarining shahrimiz bo‘ylab hamda viloyatlarga qilgan safarlarida ham albatta yoshlar tarbiyasi, madaniyat va san’at masalalari hech qachon diqqat e’tiboridan chetda qolmaganligi hammamizga ma’lum. Masalan, poytaxtimizning Uchtepa tumanidagi 78-umumta’lim maktabini borib ko‘rganlarida yoki aytaylik, shu yilning 15 iyun kuni Toshkentda bo‘lib o‘tgan "Ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi" mavzuidagi anjumanda so‘zlagan nutqida yosh avlod tarbiyasi "Bizni hamisha o‘ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so‘z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog‘liq. Bugun zamon shiddat bilan o‘zgaryapti. Bu o‘zgarishlarni hammadan ham ko‘proq his etadigan

kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o‘z davrining talablari bilan uyg‘un bo‘lsin. Lekin ayni paytda o‘zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug‘ zotlarning avlodimiz, degan da’vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o‘zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan", deya ta’kidladi Prezidentimiz. Bu vazifalar maktab, oila, mahalla, butun jamoatchilikka katta mas’uliyat yuklaydi. Mamlakatimizda ta’lim-tarbiya sohasining barcha bo‘g‘inlari – maktabgacha ta’lim, maktab, o‘rta maxsus va oliy ta’lim tizimini takomillashtirish, yangi muassasalar bunyod etish va mavjudlarini qayta ta’mirlash bo‘yicha olib borilayotgan ishlar samarasini oshirishda madaniy tadbirlarning o‘rni beqiyosdir.

Yuqorida aytib o‘tganimizdek, madaniy tadbirlarni tashkil etishda turli usul, metodlardan foydalanish tadbirning mazmunli chiqishida katta rol o‘ynaydi. Masalan, ishontirish metodini olaylik. Bu metodning asosiy vazifasi auditoriyaga ta’sir ko’rsatishdir. Buning uchun tadbirning mazmunini ishonarli, haqqoniy qilib tuzish kerak. Omma tashkilotchilarning fikriga qo’shila olmasa, berilgan ma’lumotlarga ishonmasa, u holda tadbirning maqsadi amalga oshmaydi. Bunga yo’l qoymaslik uchun tadbirda hujjatlar, faktlar, ilmiy tadqiqot ishlarining natijalari, siyosiy arboblar va olimlarning fikrlari hamda statistik ma’lumotlardan foydalanish kerak. Ular haqqoniy, mantiqli, ishonarli va qiziqarli shaklda aks ettirilmog’i kerak. Misol uchun, “odam savdosiga qarshi kurash mavzusi asosida tayyorlangan “Adashgan yo‘llar” kompozitsiyasini (V.Rustamov tomonidan sahnalashtirilgan va 2011 yil sobiq Abdulla Qodiriy nomidagi TDMI anjumanlar saroyida namoyish etilgan) tayyorlashdan asosiy maqsad u yerlarga, ya'ni o‘zga yurtlarga borib, ko‘p pul topishni istagan yoshlarga buning hammasi safsata ekanligiga ishontirish, u yerdagi shart-sharoit va ahvolning naqadar ayanchli ekanligini ko‘rsatish, o‘z yurtining qadriga yetish kabi vazifalarni qo‘ygan holda tomoshabinlar e'tiboriga havola etilishi ko‘pchilikning to‘g‘ri hulosa chiqarishiga sabab bo‘la oldi deyishimiz mumkin. Shu birgina odam savdosiga qarshi kurash mavzusi atrofida kechadigan tadbirlarni bir necha xil variantlarda tashkil etish mumkin (inssenirovka qilish,

xujjatlarni badiiylashtirish, aniq faktlar asosidagi ma'lumotlar asosida kompozitsiyalar tayyorlash va h.k.z.)”[19].

Odam savdosiga bag‘ishlangan tadbirlarda vatanparvarlik tuyg‘usi haqidagi fikrlar, xulosalar tadbir ijrochilari (aktyorlar, havaskorlar) tomonidan ishonarli qilib ijro etilsagina katta samara beradi. Chunki, bu mavzudagi voqeliklar asosan Vatandan yiroqda, o‘zga yurtlarda o‘z uylariga kela olmay yurgan insonlar haqida bo‘lganligi uchun ham ta’sirli bo‘lishi aniq.

Yuqorida qayd etib o‘tganimizdek, U.Qoraboev *namuna m*etodi haqida ham o‘z fikr mulohazalarini bayon etib o‘tadi. Hozirgi kunda bu metod asosini “Zamonaviy qahramon obrazini yaratish” masalalaridan kelib chiqqan holda yondoshish maqsadga muvofiqdir. Namuna metodi orqali kishilarining eng yaxshi fazilatlari tarannum etiladi. Vatanimizning eng yaxshi o’g’lonlarini va mahalliy sharoitda samarali ish ko’rsatayotgan mehnat ilg’orlarining hayoti va faoliyatini boshqalarga namuna qilib ko’rsatish madaniy tadbirimizning tarbiyaviy qiymatini oshirib, ommani ulardan o’rnak olishga, halol ishlashga undaydi. Ular mehnatini munosib taqdirlash ham tadbirda foydalanish mumkin bo‘lgan usullardan hisoblanadi. Taqdirlash usuli ham insonlarni mehnatini qadriga yetayotganliklarini, moddiy va ma'naviy jihatdan qo‘llanayotganliklarini va buning asnosida yanada ter to‘kib halol mehnat qilishga, qilayotgan mehnati natijasiz qolmasliklarini, Vataniga foydasiga tegayotganligi va qilayotgan mehnatining samarasi, natijasi o‘zi uchun, qolaversa, jamiyat taraqqiyoti uchun ekangligi anglashga undaydi. Undan tashqari, taqdirlash usulining yana bitta afzalligi shundaki, uning atrofida mehnat qilayotganlar ham shu e'tiborlarga erishishga intilib mehnat qiladilar.

Vatanparvarlik mavzusida o‘tkaziladigan tadbirlarda bu usul juda katta samara beradi. Masalan, ushbu yildagi 1941-1945 yillardagi urush qatnashchilari bilan tashkil etilgan tadbirlar yoshlarga qanday namuna bo‘lganligini barchamiz ommaviy axborot vositalarida, mahallarda tashkil etilgan tadbirlarda guvohi bo‘ldik.

[19]B.Sayfullayev, V.Rustamov. Madaniy tadbirlarni tashkil etish mahorati”. Toshkent, 2016., 52b.

Ma’rifiy metodlar ham madaniy tadbirlarning asosini tashkil etadi, desak yanglishmaymiz. Chunki, madaniy tadbirlarning asosiy vazifalaridan biri ommaga yangi axborot va bilim berishdan iboratdir. Bu jarayonda ham pedagogikadagi ma’rifiy metodlardan ijodiy foydalanish katta samara beradi. Davlatimiz rahbari yurtimizda hammani kitob o‘qish uchun barcha shart-sharoitlarni yaratganligi, mutolaa madaniyatini shakllantirishga oid tadbirlarning amalga oshirayotganliklari, O‘zbekistonning barcha shahar va chekka qishloqlarida ham kutubxonalar tashkil etib, ko‘chma kutubxonalar, hattoki, aholining ko‘p keladigan joylarda (masalan, bozorlarda) ham kitob o‘qish uchun imkoniyatlar yaratishga qaratilgan chora-tadbirlari tahsinga loyiqdir. Bu o‘z navbatida O‘zbekiston fuqarolarining bilimli, ilmli bo‘lish yo‘lidagi strategik ishlaridan ekanligini hammamiz ko‘rib turibmiz.

Ma’rifiy tadbirlar insonlarga bilim berishga qaratilgan faoliyat bo‘lib, uning turli usullaridan foydalanish mumkin. Kitobxonlik ko‘rik-tanlovlari bir asar atrofida, bitta muallifning asarlari doirasida yoki biron mavzu atrofida ham tashkil etilishi mumkin. Masalan, vatanparvarlik mavzusi bo‘yicha tadbir tashkil etish kerak bo‘ladigan bo‘lsa, unda quyidagi savollar doirasida ko‘rik-tanlovlar o‘tkazish mumkin. Masalan:

1.Vatanparvarlik deganda nimani tushunasiz?

2.Qaysi mualliflarning asarlarida vatanparvarlik haqida so‘z boradi?

3. Bu tuyg‘u haqida Sharq allomalari, mutafakkirlaridan kimlarning va qaysi asarlarini bilasiz?

4.Xukumatimiz tomonidan chiqarilayotgan qaysi xujjatlarda vatanparvarlik haqida so‘z boradi?

5.Vatan to‘g‘risida biron-bir qo‘shiq, she’r, monolog (yoki boshqa janrlarda) ijro eta olasizmi?

6.”Vatan”ni nimaga qiyoslash mumkin?

Bunday savollar doirasida vatanparvarlik mavzusi bilan bog‘liq bir qancha madaniy tadbirlarni o‘tkazish mumkin.

Tadbirlarda keng qo’llanishi mumkin bo’lgan ma’rifiy metodlar – bu bayon etish va namoyish qilishdir. Bayon etish metodining asosiy maqsadi shundan

iboratki, u tadbirning g’oyasi, mazmuni, axborot va faktlarini auditoriyaga jonli so’z orqali bayon qilish shaklida yetkazib beradi. Ommaviy tadbirlar tarkibida ko’pincha shunday faktlar va ma’lumotlar bo’ladiki, ular albatta batafsil tushuntirishni talab qiladi. Xuddi shunday daqiqalarda bayon etish metodi katta yordam beradi. Bu metod yordamida ma’lumotlarning mohiyati ochiladi, xususiyatlari yoritiladi va to’liq bilim beriladi. Bayon qilish metodi, ayniqsa, og’zaki jurnallarda, tematik kechalarda ko’proq qo’llaniladi.

Bugungi kunda texnika taraqqiyoti jadal rivojlanayotgan bir paytda namoyish qilishning turli usullarini qo‘llash unchalik katta qiyinchilik tug‘dirmaydi. Bu usulning yaqqol misoli sifatida J.Mamatqosimov tomonidan sahnalashtirilgan “Qordagi qizg‘aldoq” deb nomlangan badiiy-publitsistik kompozitsiyani aytish mumkin. Slaydda tayyorlangan qatag‘onlar hayotiga oid xujjatlar asosida tayyorlangan tasvirlar aktyorlar ijrosi bilan uyg‘unlashib ketadi va yagona kompozitsiyaga ega bo‘ladi. Namoyish qilish metodi tadbir mazmunidagi voqealarning obrazli tasvirini ko’rgazmali shaklda auditoriyaga yetkazishga yordam beradi. Bunda barcha ma’lumotlar obrazli kuzatish (ko’rish) orqali qabul qilinadi. Namoyish qilish metodi, asosan, ta’sirchan vositalar oraqli bajarilib, unda voqealar yoki kecha qahramonlarining hayotiga oid ma’lumotlar hujjatli, real aks ettiriladi. Masalan, portret kechasida ma’lum kishining hayoti va mehnati suratlar, filmlar, hujjatlar orqali ko’rgazmali namoyish qilinadi. Bu esa berilgan ma’lumotlarni emotsional-obrazli idrok etishga yordam beradi va ular haqidagi taassurotlarni uzoq vaqt esda saqlab qolishga imkon beradi.

Barchamizga ma’lumki, madaniy tadbirlar kishilarning ishdan bo’sh, dam olish vaqtida ijodiy jarayonga qo’shilishi natijasida vujudga keladi. Eng avvalo, havaskorlar o’zlarining ishdan bo’sh vaqtlarida ijodiy jarayonga tadbir tayyorlashadi va buning natijasida keng ommani hordiq chiqarishga, qolaversa, ularni ham ijodiy faoliyatga tortishadi. Shuning uchun hordiq chiqarish va ijodiy jarayonga qo’shilish metodlarini bir-biridan ajratish qiyin.

Madaniy tadbirlarni tashkil etish ko‘p repititsiyalar asnosida amalga oshiriladi. Tadbirni tayyorlash uchun havaskorlar tashkilotchi boshchiligida ko’p

mashq qilishadi. Bu jarayonni tashkil qilish uchun ham alohida metod, ya’ni mashq qilish metodi kerak. Bu metod boshqa metodlardan shu bilan farq qiladiki, u faqat tadbirni tayyorlash jarayonida qo’llanadi. Shuni unutmaslik kerakki, mashq qilish metodi, asosan, tadbir tayyorlovchi rejjisorning havaskorlar bilan ishlash jarayonida amalga oshiriladi. Biroq bu metod faqat birgina tadbir tayyorlash uchun kerakli harakatlarni va so’zlarni o’zlashtirish uchun zarur bo’lib qolmaydi, balki har bir mashq jarayonida havaskorlar madaniy tadbirlar sohasiga oid bilimlarni o’zlashtirishi, so’z va harakat mahoratini amaliy o’rganishi, o’z qobiliyatini o’stirishi lozim. Bu boradagi qonun-qoidalarni chuqur anglagan va o’zlashtirgan kishilargina ijodiy faoliyat ko’rsata oladi. Hordiq chiqarish va ijodiy jarayonga qo’shilish metodlari ichida auditoriyani faollashtirish va ommani tadbir qatnashchisiga aylantirish metodi muhim o’rin tutadi. Chunki bu jarayonlarsiz tadbir qatnashuvchilari passiv tomoshabinlarga aylanib qoladi. Buning natijasida ular na yaxshi hordiq chiqarishadi va na ijodiy jarayonga qo’shilishadi.

Tadbir auditoriyasini faollashtirish barcha sanab o’tilgan metodlardan samarali foydalanish natijasida ham o’z-o’zidan vujudga kelishi mumkin. Tadbir voqealarini yaxshi bayon etish, diqqatga sazovor ma’lumotlarni namoyish qilish, namunaviy faoliyatlarni aks ettirish, ilg’orlarni ma’naviy taqdirlash, qoloqlarni tanqid qilish va mazmunni ishonarli qilib ko’rsatish kabi holatlarning samarali bajarilishi ommani so’zsiz aktivlashtirib yuboradi. Lekin shu bilan birga, ommaviy tadbirlarda maxsus aktivlashtirish metodi ham qo’llanishi mumkin. Buning uchun tadbir qatnashchilaridan intervyu olish, ular bilan savol-javob uyushtirish, ba’zilarni so’zga chiqarib, fikrini bilish, viktorina uyushtirish va boshqa shu kabilarni bajarish mumkin. Ba’zi sahnaviy harakatlarni zal, omma ichiga ko’chirish ham auditoriyani aktivlashtirishga ko’maklashadi. Shuni unutmaslik kerakki, faqat aktiv auditoriya tadbir qatnashchisiga aylanishi mumkin. Tadbir qatnashchisiga aylantirish metodi – bu oily va eng samarali metod hisoblanadi. Mazkur usulni bajarish uchun ham boshqa barcha metodlardan samarali foydalanish bilan birga, maxsus harakatlardan foydalanish ko’zda tutiladi. Masalan, auditoriya ichida ashulalar aytish, ommaviy

raqslar tashkil qilish, xalq oyinlaridan foydalanish, umumiy qarorlar qabul qilish va boshqa harakatlar, so’zsiz, auditoriyani tadbir qatnashchisiga aylantirib yuboradi.

Har qanday tadbirni tashkil etishda rahbardan juda katta mehnat talab qilinadi. Shu o‘rinda aytib o‘tish joizki, tashkiliy ishlar ijodiy ishlar bilan bir xil darajada turadi. To‘g‘ri, ijodiy sharoitlarning ham o‘ziga xos ishlash uslublari bor, ammo, mana shu ijodiy jarayonni amalga oshirishning tashkiliy tomonlarini hisobga olish muhimdir. Oddiy misol qilib oladigan bo‘lsak, bitta musiqiy nomerni sahnaga olib chiqish uchun ham unga bir qancha tashkiliy ishlarni amalga oshirish kerak bo‘ladi, masalan, ansambl uchun joy tayyorlash, mikrofon qo‘yish, xonanda va musiqachilar uchun liboslar tanlash va h.k.z. Madaniy tadbirlarni uyushtirishning o’ziga xos xususiyatlari faqat uning o’ziga mansub tashkil qilish metodlarini talab qiladi. Tashkil qilish metodlari deganda, tadbirni vujudga keltirish uchun qo’llaniladigan usul, uslub va vositalardan foydalanish yo’llari tushuniladi. Qisqa qilib aytganda, bu metodlar ta’sirchan vositalardan foydalanish usullari bilan ko’proq bog’liqdir.

Hozirgi kunda o‘tkazilayotgan madaniy tadbirlarda eng faol ishlatiladigani - bu ***ilyustratsiyalash*** metodidir. Bu metod - tadbirdagi so‘z mazmuniga (boshlovchilar matni, boshqaruvchilar fikri va boshqalar) va maqsadiga mos keladigan turli-tuman badiiy va san’at vositalaridan foydalanishdir. Bunda foydalaniladigan vositalarning sintezlashib, bog’lanib ketishi shart emas. Illyustratsiyalashtirilgan tadbirda asosiy urg’u og’zaki so’zga beriladi. Boshqa badiiy materialliar esa uni kuchaytirish va to’ldirish uchun xizmat qiladi. Muzika, qo’shiq, raqs, she’r, monolog, proza, kinokadrlar va boshqa vositalardan illyustratsiya sifatida foydalaniladi.

llyustratsiyalashtirish metodini sof ilmiy taddbirglarda ham qo‘llash mumkin. (odatda, ilmiy tadbirlar ko‘proq ma'ruza shaklida bo‘ladi) Masalan, leksiyani illyustratsiyalashtirish, ya’ni unga konsert nomerlarini yoki kinolardan lavhalar qo’shish natijasida leksiya-konsert yoki kino-leksiya vujudga kelishi mumkin.

Madaniy tadbirlarni tashkil etishda bir usul borki, bu usul tadbirni to‘laqonli g‘oyaviy jihatdan to‘liq yoritilishiga, mavzuni aniq tushunishga, yordam beradi. Bu-

teatrlashtirish deb ataladi. Teatrlashtirish –teatr dramaturgiyasi qonuniyatlariga asoslanib, ma'lum voqea asosida amalga oshiriladi. Bu metod alohida maqsadga qaratilgan, badiiy obrazli tashkil etilgan, teatr qonuniyatlari asosida, dramaturgiya talablariga javob bera oladigan tadbirlarda o'z ifodasini topadi. Bunda tadbir jarayonida qo'llaniladigan barcha g'oyaviy emotsional vositalar hamda og'zaki chiqishlar kompleks tarzda birlashadi va yagona syujet liniyasini vujudga keltiradi. Teatrlashtirilgan tadbirlarning alohida qismlari mexanik tarzda birlashmaydi, balki organik tarzda sintezlashadi. Bu qismlar endi na faqat tadbir temasi va g'oyasi asosida, balki kompozitsion holda ham birlashadi. Ko'p joylarda madaniy-ma'rifiy ishlar tashkilotchilarining tipik xatosi shundan iboratki, ular tadbirlarda, asosan, dramatik lavhalardan hamda boshqa san'at vositalaridan, ashula va raqslardan foydalanib, uni «teatrlashtirilgan shakl» deb nomlashadi. Bu, albatta, teatrlashtirish metodini qo'llash talablaridan biridir.

Teatrlashtirilgan tadbirlar yagona g'oyaviy-badiiy syujet va kompozitsion tuzilishga ega bo'lishlari kerak. "Kompozitsion tuzilish" (lotincha "qurmoq"- asar qismlarining tuzilishi, mantiqiy joylashishi va uning o'zaro bog'lanishi, degan ma'noni anglatadi) o'z ichiga quyidagilarni oladi:

-prolog(voqealarning boshlanish qismi, adabiyotda ekspozitsiya, kirish yoki muqaddima);

-(asardagi tub burilish yasaydigan qismi);

-voqealar rivojlanib borgan sari u kulminatsion nuqtaga chiqadi (kulminatsiya- harakat rivojlanishining eng yuqori nuqtasi) ;

-yechim –asarning nihoyasi nima bilan tugaganligini anglatuvchi qism (yechimda xulosa qismi sifatida epilog berilishi mumkin); A.D.Silin o'zining "Rejissyorning ochiq maydonlarda va noan'anaviy sahnaviy kengliklarda ishlashi" kitobida, kopozitsion tuzilish prolog, epizodlar qatori va finaldan iborat bo'ladi, deb ko'rsatib o'tgan.[20]

[20] A.D.Silin. "Rejissyorning ochiq maydonlarda va noan'anaviy sahnaviy kengliklarda ishlashi". M., 1988y.77b

Teatrlashtirilgan tadbirlarga real qahramon obrazi yoki badiiy asarlardan olingan obrazlar kiritilishi maqsadga muvofiqdir. Ko'pgina tadbirlarda boshqaruvchi hayotimizning real vakili sifatida chiqadi. Lekin hanuzgacha teatrlashtirilgan tadbirlarda badiiy yoki tarixiy obrazlar kam uchramoqda. Ulardan foydalanish tadbirning badiiy qimmatini oshiradi.

Teatrlashtirilgan tadbirlarda omma oddiy tomoshabin emas, balki tadbir qatnashchisiga aylanib ketishi kerak. Yuqorida qayd qilingan talablarni hisobga olgan ommaviy shakllarni teatrlashtirilgan tadbirlar deb atash mumkin. Teatrlashtirilgan tadbirni vujudga keltiradigan teatrlashtirish metodi murakkab, ko'p ishlashni, chuqur ijodiy yondashishni talab qiladigan usuldir. Yengil, oson bajariladigan ishning har doim samarasi kuchli bo'lavermaydi.

Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, illyustrattsiyalashtirish metodini ham, tetrlashtirish metodini ham xohlagan shaklga nisbatan ishlatib bo'lmaydi. Har bir metodning o'zi talab qiladigan tadbirlari bor. Masalan, illyustratsiyalashtirish metodini ommaviy bayramga nisbatan qo'llasak, ko'p narsa yutqaziladi. Leksiya yoki suhbatni tetrlashtirishning hojati bo'lmasa kerak.

Illyustratsiyalashtirish metodidan tashkil qilinishi oson, har kuni o'tkazilishi mumkin bo'lgan shakllarga nisbatan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Tetrlashtirish metodini esa shaxsiy-madaniy qimmati balandroq bo'lgan kompleks shakllarda foydalanish zarur. Uni ayniqsa, ommani hayajonlantiradigan, buyuk sanalarga va bayramlarga bag'ishlangan tadbirlarda qo'llash lozim. Bir so‘z bilan aytganda, madaniy tadbirlarni tashkil etish mobaynida usullarni to‘g‘ri tanlash, ulardan oqilona foydalanish – tadbirning to‘laqonligini ta'minlaydi, saviyasini oshirishga xizmat qiladi.

Har qaysi davlat, har qaysi millat, nafaqat yer osti va yer usti tabiiy boyliklari bilan, harbiy qudrati va salohiyati bilan, balki birinchi navbatda, o‘zining yuksak madaniyati va ma'naviyati bilan kuchlidir.[21]

[21] I.A.Karimov. “Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori”. T., 2010. 21 b.

O‘zbekiston diyori haqli ravishda dunyo sivilizatsiyasining beshiklaridan biri hisoblanad. Bu yerga Abu Ali ibn-Sino, Al-Xorazmiy, Amir Temur, Imom Buxoriy, Xoja Axror Valiy, Ulug‘bek, Qozizoda Rumiy, Sharafiddin ali-Yazdiy, Davlatshoh Samarqandiy, Nizomiy Ganjaviy, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy kabi ko‘plab hazrati insonlar – dunyo xalqlarining ma'naviy, madaniy, estetik hayotiga asos solgan buyuk siymolarning qadamlari tekkan.

Jamiyat taraqqiyotidagi har qanday o‘zgarishlar, yangiliklar, ayniqsa, insoniyat rivojiga katta turtki beradigan jarayonlar, kashfiyotlar insonning ta'sirisiz ro‘y bermaydi. Buning uchun avvalo, asriy an'analar, tegishli shart-sharoit, tafakkur maktabi, madaniy-ma'naviy muhit mavjud bo‘lmog‘i kerak. Millatning tabiatida, qonida, nasl-nasabida ezgulik sari intilish mafkurasi va qonuniyati jo‘sh urishi lozim. Yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga nisbatan hurmat ruhida va axloq qoidalari asosida tarbiyalash, yosh avlodda hayotga qat'iy ishonch va qarashni, mentalitetimizga yot bo‘lgan zararli ta'sir va oqimlarga qarshi tura olish qobiliyatini rivojlantirish ustuvor vazifa hisoblanadi. Mazkur sohadagi muhim vazifalar quyidagilardan iborat:

-yosh avlodni mustaqillik g‘oyalariga cheksiz sadoqat ruhida tarbiyalash, ona yurtiga muhabbat tuyg‘usini, mamlakatimiz manfaatlarini himoya qilishda jasorat va fidokorlik fazilatlarini tarbiyalash borasida tashkiliy, targ‘ibot va tashviqot, ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo‘yicha chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqish va amalga oshirish;

-ma'naviy-ma'rifiy ishlarning mohiyati va shaklini tizimli, uyg‘un bo‘lishiga erishish, ularning aniq maqsadga yo‘naltirilganligini ta'minlash;

-turli hududlarning o‘ziga xos jihatlarini, turli qatlamdagi yoshlarning ehtiyoj va qiziqishlarini inobatga olgan holda nafaqat madaniy-ma'rifiy chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish va uni hayotga tadbiq etish;

-yosh avlodga ruhiy tayanch bo‘lib xizmat qiladigan, ularda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga nisbatan hurmat munosabatini tarbiyalaydigan buyuk ajdodlarimiz merosini chuqur o‘rganish;

-barcha ta'lim-tarbiya muassasalarida, korxona va tashkilotlar jamoalaridagi yoshlarning ongi va dunyoqarashi shakllanishiga ta'sir koʻrsatishi mumkin boʻlgan kayfiyat va intilishlarni, ma'naviy-ruhiy muhitni muntazam oʻrganib borish.

-yoshlarda faol fuqarolik pozitsiyasi, siyosiy jarayonlarga ongli munosabatni, ma'naviy-axloqiy sohada turli tashqi va ichki tahdidlarga qarshi mustahkam mafkuraviy immunitetni shakllantirishda ijtimoiy loyihalardan foydalanish samarali natijalarga erishishning garovidir.

Shu oʻrinda ta'kidlash lozimki, bularning barchasining negizida madaniy tadbirlarning oʻrni nihoyatda salmoqlidir.

Madaniy tadbir – bu turmushimizning madaniy voqealariga oid, turli shakl va badiiy uslub asosida odamlarning ongi va koʻngillariga tarbiyaviy, ma'rifiy ta'sir koʻrsatadigan jihatlar tushuniladi. Uning negizida eng muhim insonparvarlik masalalarining yechimiga ijodiy yondashishda harakatlantiruvchi kuch boʻlib xizmat qiladigan oʻziga hos, betakror, ijodiy, tashkiliy jarayonlar yotadi. Madaniy tadbirlar milliy qadriyatlar, an'analar, urf-odatlar, asosida vujudga kelgan boʻlib, har bir odamni mehr-shavqatli, mehr-oqibatli boʻlishiga da'vat etadi, yer yuzida barqarorlik, birdamlik va ahillik tabiatini uygʻotadi, xalqlarning madaniyatlarini oʻzaro birlashtiradi, boyitadi, insonlarning millati, tili va dinidan qat'iy nazar, xalqlarni bir-biriga yaqinlashtiradi. Madaniy tadbirlarning asosiy vazifasi – milliy va dunyo madaniyatlarining eng yaxshi namunalarinin keng targʻib qilish va ommalashtirish, oʻsib kelayotgan avlodni, zamonaviy yoshlarni ma'naviy tarbiyalash, millatiga, tarixiga, insoniyatga boʻlgan hurmatni uygʻotish va saqlash hisoblanadi. Zotan, xalqlarning oʻziga hosligi va betakrorligini saqlash, tarixan shakllangan qadimiy milliy madaniyatlar, san'at va xalq ijodiyoti, yuz yillar davomida tarkib topgan milliy an'ana va urf-odatlarning oʻzaro yaqinlashuvi va bir-birini boyitishi uchun, dunyoda yashayotgan turli millat va elat vakillari oʻrtasida oʻzaro hurmat muhitini qaror toptirish uchun madaniy tadbirlarning ahamiyatini alohida ta'kidlash maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, madaniy tadbirlarda shaxs oʻz insoniy fazilatlarini shakllantira boshlaydi, yashirin, betakror, individual hususiyatlari, qobiliyatlarini kashf etadi, ularni oʻstiradi va rivojlantirib boradi,

jamiyat, hayot bilan muloqotga kirishadi. Murakkab ijtimoiy voqelik sifatida bu tadbirlarning o‘ziga hosligi shundaki, u insoniyat avlodlarinig mehnati va bilimlarini o‘ziga singdirib oladi, saqlaydi, doimiy boyitib boradi va ularni kelgusi avlodlarga yetkazib beradi**.**

Madaniy tadbirlarning maqsad va vazifalariga ko‘ra bir qancha mavzularga asoslangan holda bo‘lib o‘rganish mumkin: Masalan:

-Vatanimiz mustaqilligining ma'naviy asoslarini mustahkamlash, milliy qadriyatlarimiz, an'ana va urf-odatlarimizni asrab-avaylash, xalqimiz, ayniqsa, yosh avlod qalbi va ongiga ona yurtga muhabbat, istiqlolga sadoqat tuyg‘ularini chuqur singdirish masalalariga qaratilgan “Hurlik timsolisan, ona Vatanim!”, “Mustaqillik –oliy ne'mat!”, “Vatan yagona, Vatan muqaddas!”, “Ma'naviyatimiz va uning asoslari”, “Buyuk tariximizni o‘rganish – kelajagimizning asosi”, “Til millatning qalbi”, “Yurtimiz ravnaqi - salohiyatli yoshlar qo‘lida”, “Urf-odat va an'analarimiz ma'naviyatimiz ko‘zgusi”, “Millatlar do‘stligi – yurt boyligi”, “Buyuk ajdodlarimizga munosib voris bo‘lamiz”, “Milliy an'ana va urf-odatlar”, “Ma'naviy tarbiya va milliy musiqa” kabi mavzularda tashkil etilgan madaniy-ma'rifiy tadbirlar.

-Yurtdoshlarimizni muqaddas islom dini va falsafasi, aziz avliyolarimizning ibratli hayoti, qutlug‘ qadamjolariga, boshqa diniy konfessiyalarga nisbatan hurmat-ehtirom va bag‘rikenglik ruhida tarbiyalash, jamiyatimizda sog‘lom turmush tarzi, millatlararo totuvlik, o‘zaro mehr-oqibat muhitini mustahkamlash bo‘yicha ma'naviy-ma'rifiy dasturlarni amalga oshirishga yo‘naltirilgan tadbirlar “Millatlararo birodarlik – azaliy odat”, “Yagona oila farzandlarimiz” “Shu aziz vatan barchamizniki”, “Do‘st bilan obod uying”, “Biz yagona oilamiz!”, “O‘zbekiston – umumiy uyimiz!” mavzularida do‘stlik bayramlari, respublikamiz, shaharlarimizning tarixiy qadamjolari, muqaddas yurtimizning, millatimizning shonu shavkati bo‘lgan maydonlarimizga ekskursiyalar tashkil etish;

-Insonlarning huquqlari hamda manfaatlarini himoya qilishga, jinoyatchilikka qarshi kurash samaradorligini oshirishga qaratilgan madaniy tadbirlar “Bosh qomusimizni o‘rganamiz” turkum tadbirlaridan “Konstitutsiya va o‘zbek milliy

davlatchiligi an'analari", "O‘zbekiston – suveren demokratik Respublika", "Davlat – bu xalq hokimiyati", "Davlat hududi mustaqillik nishonasi", "Til – davlat belgisi", "O‘zbekistonning davlat ramzlari", "Xalq hokimiyatchiligining asosiy shakllari", "Demokratiya va inson huquqlari", "Ijtimoiy adolat va qonunchilik", "Konstitutsiya va qonun ustuvorligi", "Konstitutsiya – huquqning asosiy manbai" kabi mavzularni qamrab olishi mumkin.

-Sportga muxabbat, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qiluvchi "Biz sog‘lom avlodlarmiz", "Asrimiz pahlavonlari", "Sog‘lom hayot – sog‘lom kelajak", "Hamisha sog‘lom bo‘l bolajon", "Avlodlari sog‘lom yurt qudratli bo‘lur" kabi mavzularda o‘tkazilayotgan sport va san'at bayramlari, "Chekish zararli illat", "Voyaga yetmaganlar sog‘lom turmush tarzi uchun" kabi mavzulardagi aksiyalar, shuningdek, yosh sportchilar ishtirokida turli madaniy-ma'rifiy tadbirlar va sport tomoshalari,, sport ustalari, murabbiylar, fan va san'at namoyondalari, tibbiyot va huquq-tartibot xodimlari bilan uchrashuvlar o‘tkazilishi maqsadga muvofiqdir.

-Respublika miqyosida o‘tkazilib kelinayotgan "Ekologiya va xalq salomatligi", ekofestival, "Inson va tabiat", "Tabiat va jamiyat", "Toza muhit – sog‘lom avlod garovi" kabi tadbirlar yoshlar va voyaga yetmaganlar ishtirokida tashkil qilinib, ular e'tiborini hozirgi kundagi ekologiya muammolariga tortishga, ona tabiatni asrab-avaylashga qaratilmoqda. "Tabiat manzaralari musavvirlar ijodida", "Gullar olami", "Tabiat – ijodkor", "O‘zbekiston tabiati", "Qushlar bizning do‘stimiz", "Antiqa o‘simliklar dunyosi" kabi mavzularda ko‘rgazmalar, "Bog‘ning yashil tabiati", "Bog‘ning jonli burchagi" mavzularida bog‘ hududi bo‘ylab sayllar tashkil etish;

-Bolalar uchun o‘tkaziladigan taniqli yozuvchi-shoirlar, qo‘shiqchi, teatr artistlari, mo‘yqalam sohiblari, bastakorlar, amaliy san'at va milliy hunarmandchiligimiz ustalari bilan o‘tkaziladigan uchrashuvlar hamda "She'riyat bo‘stoni", "Musiqa sehri", "Go‘zallikka talpingan qalblar", "San'at g‘unchalari", "Quvnoqlar davrasi", "Yoshlar ovozi", "Raqs malikalari" kabi mavzulardagi badiiy kechalar, "Yangi avlod", "Kelajak ovozi" kabi festivallar farzandlarimizga estetik

tarbiyani singdirish va go‘zallik, qolaversa, san'at olamiga bo‘lgan muhabbatni yuraklarga jo qilishda alohida ahamiyatga ega.

Yuqorida ta'kidlab o‘tganimizdek, madaniy tadbirlarda asosan og‘zaki, ko‘rgazmali, texnik, matbuot hamda san'at vositalari qo‘llaniladi. Bu kabi vositalarning har biri o‘ziga xos usullar, xususiyatlar va shakllarga egadir. Og‘zaki vositalar ma'ruzalar, suhbatlar, turli ma'lumot va axborot xabarlari, savol-javob kechalari tashkil qilib o‘tkaziladi. Ko‘rgazmali vositalarda esa turli mavzulardagi plakatlar, maxsus tayyorlangan ko‘rgazma vositalari, shior va chaqiriqlar, diagramma va ma'lumot ko‘rsatkichlaridan, texnik vositalarda esa ovoz kuchaytirish apparatlari, radio, televidenie, kino, video va audio apparatlari, minidisk, magnitofon va fotoapparatlardan foydalanish mumkin. Voyaga yetmaganlar bilan ishlash va ular uchun turli tadbirlarni tashkil qilib o‘tkazishda, yuqorida ko‘rsatilib o‘tilgan vositalardan tashqari rang-barang shakllar ham qo‘llaniladi. Shuni ham aytib o‘tish kerakki, o‘tkaziladigan tadbirlarning usul va shakllari vaqtlar o‘tgan sari zamonaga moslashib yangilanib boraveradi.

Madaniy tadbirlarda foydalaniladigan vositalar. Madaniy tadbirlarni tashkil etishda tashkilotchi rahbar xilma-xil usullardan foydalanish bilan bir qatorda, turli xil vositalardan ham foydalanadi. Madaniy tadbirlarni g’oyaviy emotsional vositlarsiz also tasavvur qilib bo’lmaydi. Maxsus materiallarsiz uy qurib bo’lmaganidek, vositalarsiz tadbirni tashkil qilib bo’lmaydi. Agar, imorat sement, yog’och, mix, oyna va shunga o’xshash materiallar asosida vujudga kelsa, madaniy tadbirlarni ham o’ziga xos so’z, san’at va texnik vositalarsiz tashkil qilib bo’lmaydi. Vositalar tadbirning tarkibiy qismi, asosiy komponentlari va mexanizmlari sifatida xizmat qiladi.

Vosita tushunchasi deganda, kishilarning hissiyotiga, psixologiyasiga va ongiga ta’sir etuvchi va bilim olish samaradorligini oshiruvchi goyaviy-hissiy usullar, qurollar, asbob-uskunalarni tushunamiz.

Madaniy tadbirlarda quyidagi vositalardan samarali foydalanish katta samara berishi mumkin:

-Tadbirga mazmun beruvchi vositalar (badiiy bezak,musiqiy bezak, sahnaviy bezak);

-Texnik (mul'timediya, ovoz kuchaytirgich, DVD, CD, mikrofonlar, nootebook va boshqa) vositalar;

-Ko'rgazmali vositalar

-Adabiyot va san'at vositalari

-matbuot vositalari

-tanishtiruvchi vositalar (afisha taklifnoma, dasturlar va h.k va boshqalar).

Tadbirlarni tashkil etishda bir vaqtning o'zida bir nechta vositalardan foydalanish ham mumkin.

Madaniy tadbirlarni tashkil etishda biz bevosita turli vositalarning ishtirokiga amin bo'lamiz. Madaniy tadbirlarda qo'llaniladigan vositalarning diapozoni juda keng va ularning soni ko'pdir. Tadbirlarda *jonli so'z, matbuot, ko'rgazmali qurollar, adabiyot va san'at, har xil texnik apparatlar* kabi vositalardan to'g'ri foydalanish – tadbirlardan ko'zlangan asosiy maqsadni, tadbirlarning g'oyaviy-emotsional ta'sirchanligini, uning mazmunini ochib berishga xizmat qiladi. Undan tashqari, *metafora, allegoriya, ramz* kabi ifoda va ta'sirchan vositlari borki, ular ham tadbirlarning badiiyligini oshirishga katta ta'sir ko'rsatadi. Metafora, allegoriya va ramz tushunchalarini ko'proq bayramlarda qo'llanishi haqida rejissyor-pedagoglardan B.Sayfullayev, F.Ahmedov, J.Mamatqosimovlar o'zlarining yaratgan qo'llanma va darsliklarda aytib o'tganlar. Shuning uchun bular haqida bu bo'limda to'xtalib o'tirmaymiz.

Tadbirning g'oyaviy va emotsional-obrazli kuchini oshiradigan, ommaning qiziqishini orttiradigan vositalardan samarali foydalanish – bu tashkilotchilar oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Madaniy tadbirlar tashkilotchisi mavjud bo'lgan barcha ta'sirchan vositalardan yaxshi xabardor bo'libgina qolmasdan, balki ulardan samarali foydalanish metodikasini ham bilmog'i lozimdir.

Madaniy tadbirlarda eng ko'p foydalaniladigan ta'sirchan vositalardan biri – so'z san'atining qo'llanishidir**.** Jonli so'z barcha tadbilarda asosiy vosita sifatida qo'llanilib, o'zgarmas komponent sifatida xizmat qiladi. Madaniy tadbirlarda jonli

so’z faqatgina mazmunni yoritishda xizmat qilmasdan, balki syujet bilan ommaviy harakatlarni ham bir-biriga uyg’unlashtirib boradi. Aynan jonli so’z voqea ma’nosini tomoshabinga yetkazadi, bir epizodni ikkinchisiga bog’laydi, boshqaruvchining auditoriya bilan muloqotda bo’lishi uchun sharoit yaratadi. Jonli so’zning yana bir afzallik tomoni shundaki, ba’zan fikrni hech qanday ta’sirchan vosita tomoshabinga yetkazib bera olmaydigan daqiqalarda, jonli so’z yordamga keladi. So‘z san'atining darg‘alaridan A.Nosirova o‘zining “Jonli so‘z san'ati asoslari” deb nomlangan kitobida shunday deb yozadi: “Masalaning muhim tomoni shundaki, yangi bosqich xalq bayramlarida jonli so‘z mavqei nihoyatda kengaydi, teranglashdi, yuksaldi. Shuni aytish lozimki, istiqlol xalq bayramlarining badiiy so‘z qatlami jonli so‘z ijrochilik san'atining barcha tur va janrlarini qamrab oldi. Bunday yuksak mavqeli xalq ommaviy bayramlari eng yuksak unvonli va yuksak iste'dodli professional san'atkorlarning Shekspir, Shiller kabi jahon klassiklari asarlaridan keltiriladigan monologlaridan boshlab jahon va milliy adabiyotning eng sara asarlarigacha, folklor durdonalaridan toki ichakuzdi askiyalarigacha qamrab oladi”.[22] Darhaqiqat, bu soha o‘ziga xos san'at turi bo‘lib, madaniy tadbirlarni ta'sirchanligini oshiradi.

Madaniy tadbirlarda boshlovchi (yoki boshqaruvchi)ning so’zi asosiy o’rinni egallaydi, ba’zi hollarda esa u kechaning boshidan to oxirigacha yetakchi vosita sifatida qo’llaniladi. U kirish so’zi (monolog) shaklida yoki muqaddima sifatida yaxshi xizmat qilishi mumkin. Tadbir davomida esa boshqaruvchi, komentatorga, hikoyachiga yoki intervyu beruvchiga aylanib, jonli so’zdan foydalaniladi. Tadbirlarda jonli so’zdan foydalanish imkoniyatlari juda ko’p. Ammo, bir narsani hisobga olish muhimdir. Sahnalashtirish san'atida ko‘pincha so‘z o‘rnini harakat bilan almashtirish variantlari izlanadi, ya'ni so‘zning ekvivalenti harakat bilan almashtiriladigan holatlarni ham kuzatish mumkin.

Ta’sirchan vositalardan biri *badiiy so’zdir*. Badiiy so’z aytilmoqchi bo’lgan fikrni badiiy-emotsional tarzda yetkazib berishga xizmat qiladi. Madaniy tadbirlarda

[22] A.Nosirova. “Jonli so‘z san'ati asoslari”,T., 2003 y, 9-bet

badiiy so’zning she’r o’qish, prozaik va she’riy monologlar, juft yoki ko’pchilik tomonidan o’qiladigan deklamatsiyalar kabi turlaridan keng foydalaniladi. Masalan, vatanparvarlik mavzusida o‘tkaziladigan tadbirlar uchun monologlar, mavzuga mos so‘zlar, she’r, qo‘shiqlar tanlashda Vatanni madh etuvchi, ona vatanni ulug‘lovchi asarlardan foydalanish tadbirning mazmuni ochib berishda katta samara beradi.

Badiiy o’qish boshqa materiallar bilan bir vaqtda ijro etishi mumkin. Masalan, she’r o’qilayotgan bir vaqtda she’rning ma’nosiga mos keladigan kino lavhalar ko’rsatilishi mumkin. Shuni unutmaslik kerakki, umumiy to’qima gaplar bilan aholini hech qachon qiziqtirib bo’lmaydi.

Madaniy tadbirlarda *dramatik parchalar*dan ham mohirona foydalanish yaxshi samara beradigan vositalardan hisoblanadi. Dramatik parchalarni tayyor pesalardan olish ham mumkin yoki mavzuga oid turli badiiy asarlarni inssenirovka qilish orqali ham ishlatish mumkin. Unda ko‘pincha havaskorlik teatr kollektivlarining ijod mahsullari asqotadi. Mahalliy (faktlarga asoslangan) muammolarga qaratilgan turli intermediya, hajviy ko‘rinishlarni ijrochilar o‘zlari to‘qib, yozib, sahnalashtirib tomoshabinlar e'tiboriga havola etishlari mumkin. Bunday usuldan foydalanish tomoshabinlarni tarbiyasiga ijobiy ta'sir qilishi mumkin.

Yuqorida aytib o‘tganimizdek, teatrda maxsus malakaga ega bo‘lgan professional aktyor yoki rejissyor ishlasa, madaniyat va ahol dam olish markazlari, maktab yoki kollej yoki turli tashkilotlarda o‘tkaziladigan tadbirlar asosan havaskorlar ijodiga tayanadi. Turli xil to‘garaklarda (masalan, drama to‘garagi) o‘rgangan mahoratini qo‘llab turli sahnaviy chiqishlarni amalga oshiradilar. Dramatik asarlardan parchalar olib sahnalashtirishga harakat qiladilar, ya’ni rol o‘ynab, obraz yaratishga harakat qiladilar. Tadbir tashkilotchilari esa bunday obrazni yaratish, sahnaviy asarni tomoshabinga taqdim etish uchun esa o‘zlari shu sohani yaxshi tushunishlari, sahnalashtirishga oid tushunchalarni bilishi lozim.

Vatanparvarlik mavzusidagi tadbirlar uchun dramatik asarlardan topishning iloji bo‘lmasa, boshqa janrlardagi asarlarni inssenirovka qilish orqali foydalanish mumkin. Inssenirovka – bu adabiy asarni qayta ishlash bo‘lib, tadbir g‘oyasidan

kelib chiqib, uning mazmunini ochib beradigan qismlaridan parcha olib ishlatish mumkin.

Avvallari madaniy tadbirlarni tashkil etishda eng ko‘p qo‘llaniladigan vositalardan biri -*ko’rgazmali vositalardan* foydalanishdir,deb hisoblanardi.Ammo hozirgi texnika taraqqiyotining jadal rivojlanayotgan bir davrida ularning o’rnini kompyuter texnologiyalari, multimediya vositalari egallab bormoqda. Ko‘rgazmali vositalardan foydalanish tadbir mazmunining yaxshiroq yoritilishiga yordam bergan, tomoshabinning kayfiyatini ko’tarib taassurotlarini boyitgan.

Vatanparvarlik mavzusiga bag‘ishlab o‘tkaziladigan tadbirlar yoshlar ongida ona Vatanga muhabbat, xurmat, yurti, oilasi, Vatanini sevish, uni himoya qilishga qaratilgan manbalar asnosida targ‘ib qilinadi. Bunday tadbirlarni tashkil etishda, insonlar onggiga ta’sir qilishda uning dramaturgiyasi bo‘lmish ssenariyni mukammal yaratish uchun alohida mahorat, bilim, ko‘nikma va tajriba talab etiladi. Oddiy konsert dasturini o‘tkazish bilan insonlarga ta’sir qilish qiyin bo‘ladi, ammo uni g‘oyaviy jihatda mazkur mavzu uchun yo‘naltirishga esa alohida mahorat maktabini o‘tash kerak bo‘ladi.

Madaniy tadbirlarda san’at vositlaridan mohirona foydalanish katta samara beradi. Bunday tadbirlar san’atning deyarli barcha turlaridan fodalanishni taqozo etadi. Raqs, teatr, rejissura va aktyorlik, arxitektura, rassomchilik, estrada, dizayn, teatr, kino, konsertlar va boshqalar shular jumlasidandir. San’at vositalarining ishtirokisiz o‘tkazilgan tadbirlar oddiy ma’ruzalarga o‘xshab qoladi va uning effekti bo‘lmaydi. Ta’sir qilishning turli usul va vositalaridan to‘g‘ri, samarali foydalanish madaniy tadbirlarning mazmunini oshiradi hamda tinglovchi yoki tomoshabinlarni sahnada bo‘layotgan voqelikka munosabatini yaxshilaydi, ularni tadbirning faol ishtirokchisiga aylanishiga asos bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, madaniy tadbirlarni tashkil etishda ta’sirchan usul va vositalardan unumli foydalanish tadbirning salohiyatini ko‘taradi, saviyasini oshiradi va badiiyligini ta'minlaydi.

XULOSA

“Vatan” tuyg‘usi to‘g‘risida so‘z borganda uni dunyodagi eng go‘zal go‘shalarga qiyos qilishadi. Vatan ostonadan, inson yashab nafas olib turgan go‘shadan, insonning kindik qoni to‘kilgan xonadon tuprog‘idan boshlanadi. Shu bois, inson ilk bor nafas olib, ulg‘ayib voyaga yetgan ona zaminga mehr-muhabbat va sadoqatda bo‘lishi, uning har bir hovuch muqaddas tuprog‘ini ko‘ziga to‘tiyodek surtishi, unga nisbatan bir umr farzandlik hissi bilan yashashi uning uchun ham farz, ham qarzdir. Vatanimiz tuprog‘idagi har bir qarich yer muqaddas hisoblanadi. Shuning uchun ajdodlarimiz yurt tuprog‘ini ko‘zlariga to‘tiyo etganlar, qayerga borsa ham vatan yodi bilan nafas olganlar. Yurtimiz insonlari vatanimizdan tashqarida baxt-saodatga erisha olmaydilar. Har bir insonning o‘z Vatani uning uchun dunyodagi eng go‘zal va muqaddas makondir. Vatanga mehr-muhabati bo‘lmagan insonni ota-onasiga mehri bor desalar bunga ishonib bo‘lmaydi. Ona vatanimizga sadoqatli bo‘lish, ajdodlar merosiga qiziqish, milliy ma’naviyatdan baxramandlik, o‘ziga ishonch, kelajak oldida ma’sullik tuyg‘ularini tarbiyalaydi. Madaniy-ma’rifiy muassasalarida bu mavzuga oid madaniy tadbirlarni tashkil etishning mazmun-mohiyati shundan iboratki, mamlakatimiz mustaqilligi hamda xududiy yaxlitligi, xalqimizning tinch hayotini va mustaqillikni mustahkamlash yo‘lidagi bunyodkorlik mehnatini himoya qilish, yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdagi ahamiyatini keng yoritib berish, ularni o‘z vataniga sodiq va fidoiy insonlar etib tarbiyalash barcha tadbirlar tashkilotchilarining eng muhim vazifalaridan biriga aylangan. Bugungi kunda yoshlarda Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi, komil inson, ijtimoiy hamkorlik kabi milliy g‘oyalarning asosiy yo‘nalishlarini shakllantirish - bizning ma’naviy-ma’rifiy ishlar borasidagi ishlarimizning ko‘zgusi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Vatanimiz, xalqimiz tinchligi va osoyishtaligini ishonchli himoya qilish, bugungi kunda har bir yigit qizning orzusi va burchiga aylanib bormoqda.

Bugungi yoshlarimiz mustaqil vatanimizning posbonlaridir. Biz navqiron avlod vakillarini barkamol, yetuk kishilar qilib voyaga yetkazsak, ularning har birida or-nomus, milliy g‘ururni izchil shakllantirib borsak, vatanimiz shunchalik qudratli

davlatga aylanadi. Vatanni, xalqimiz tinchligi va osoyishtaligini ishonchli himoya qilish, vatanparvar bo‘lish, sodiqlik, fidoyilik tuyg‘ularini xis etib yashayotgan yoshlarimiz mustaqil yurtimizning kelajagidir. Biz qo‘lga kiritgan bunday yutuqlar bilan muqaddas yurtimizda yashayotgan, millati, dini va e’tiqodidan qat’i nazar, har bir inson haqli ravishda faxrlansa arziydi.

Vatanparvarlik tuyg‘usini yoshlar ongiga singdirishda madaniy tadbirlarni tashkil etish orqali amalga oshiriladigan ishlar zamirida juda katta mehnat yotganligini anglashimiz lozim. Tadbirlar tashkil etishda yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, faqat kuy, qo‘shiq aytgan bilan tadbir qatnashchilari vatanparvar bo‘lib qolishmaydilar. Tadbirni g‘oyaviy yo‘naltirish orqali maqsadga erishish mumkin. G‘oyaviy yo‘naltirish esa tadbirni tayyorlash jarayonidan boshlanadi, ya’ni o‘tkaziladigan tadbirni ssenariysini yaratishdan tortib, to tomoshabinga havola etgunga qadar “qizil ip” chizig‘ida kuzatib turadi.

Bitiruv malakaviy ishi bo‘yicha quyidagilarni **tavsiya** etaman:

1.Har qanday madaniy tadbirlarni tashkil etishda “g‘oyaviy talqin” masalasiga jiddiy e’tibor berish;

2.Tadbir tashkilotchilarining tadbirlarni tashkil etish bo‘yicha malakalarini oshirib borish, yangi innovatsion jarayonlarni tadbirlar mazmuniga singdirish;

3.Har qanday tadbirlar mazmuniga vatanparvarlik, insoniylik, mehr-oqibat, Vatanni sevish, uni qadriga yetish, mustaqillik ne’matlari, jamiyatda sodir bo‘layotgan jiddiy o‘zgarishlar bo‘yicha ma’lumotlarni singdirish;

4. Tadbirlarda mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar mazmuni-mohiyati haqidagi ma’lumotlarni badiiy vositalar orqali tinglovchilarga yetkazish yo‘l-yo‘riqlari, usullari ustida izlanish, insonlarning bu jarayonlarda faol ishtirokini ta’minlashga undaydigan manbalardan foydalanish;

5.Vatanparvarlik tushunchasining mazmuni, mohiyati haqida oliy ta’lim talabalari bog‘cha, maktab, litseylarda madaniy tadbirlarni tashkil etish;

Undan tashqari, bitiruv malakaviy ishi himoyasi uchun albatta biron-bir madaniy tadbirlarni o‘tkazish, tahlil qilish va uni bitiruv ishining bitta paragrafida yoritish bo‘yicha ***taklif*** bermoqchiman.

Xulosa sifatida shuni aytish lozimki, vatanparvarlik mavzusida tadbirlarni tashkil etish - yoshlarni Vatanni sevishga, uni ardoqlashga, shu zaminning qadriga yetishga undaydi.

GLOSSARIY

”Vatan” – arabcha so’zdan olingan bo’lib, “Ona yurt” degan ma’noni anglatadi. Vatan insonning kindik qoni to’kilgan, avlod va ajdodlari tug’ilgan joyi, ijtimoiy muhiti va inson, uning hayoti va ma’naviy tushunchalarni anglatadi.

Vatanparvarlik – deganda Vatanga sadoqat, unga xizmat qilish, yurt tinchligini asrash, Vatan ravnaqi uchun faol bo’lishga undaydigan ma’naviy – axloqiy fazilatlar tushuniladi. Vatanparvarlik – ota-bobolarimizdan meros qolgan zaminni sevish, yurtning o’tmishi va kelajagi, xalq urf-odatlarini, kuy-qo’shiqlarini, qadriyatlarini asrash va rivojlantirish demakdir.

Madaniy tadbirlar – aniq bir reja, maqsadni ko‘zlagan holda tashkil etilgan ishlar ko‘lamidir. Madaniy tadbirlar insonlarni tarbiyalaydi, ularni bir-birlariga yaqinlashtiradi, mehr-oqibat, yaxshilik, nafosat, go‘zallik kabi tushunchalarning mazmunini yanada kengroq o‘rganishga sabab bo‘ladi.

Tadbir (lug‘atda)– 1.Biron ishni, maqsadni amalga oshirish, ro‘yobga chiqarish vositasi – shuning uchun puxta o‘ylab tuzilgan, ishlab chiqilgan amaliy choralar majmuidir; 2. (boshqarish, idora qilish; tejamkorlik; chora, iloj, yo‘l-yo‘riq; harakat tarzi) degan ma’nolarda qo‘llaniladi. Amalga oshirish, ro‘yobga chiqarish uchun yo‘l-yo‘riq va chora) ma’nolarini anglatadi. 3.“Maqsadni amalga oshirish yo‘lidagi ish, xatti-harakatning o‘zi”. 4.“Ma’lum maqsadda tashkiliy ravishda amalga oshiriladigan (bajariladigan) ish, ishlar[23]”, deb berilgan.

Tadbirkor – 1.tadbir qiluvchi, tadbir izlovchi; 2.Ishlab chiqarishni yoki boshqa faoliyatni tashkil etuvchi, moliyalashtiruvchi, tijorat yoki sanoat korxonasini foyda olish maqsadida boshqaruvchi shaxs, mulkdor.

Tadbirli - tadbir bilan, puxta o‘ylab ish qiladigan insonga nisbatan ishlatiladi.

Tadbirsiz - o‘ylamasdan, reja va tadbir ko‘rmasdan ish tutuvchi; pala-partish, ma’nolarida qo‘llaniladi.

Tarbiyaviy tadbirlar –turli xil moddiy va ma’naviy ehtiyojlarga javob beruvchi tarbiyaviy maqsadlarning yagona majmuasiga bo‘ysundirilgan, bir-biri

[23] Izohli lug‘at. el. variant.

bilan o‘zaro hamkorlik qiluvchi, o‘zida bir butun ta’limni ko‘zda tutgan tarbiyaviy ta’sir majmuidir.

“Metod” so‘zi –“bayon qilish”, “bajarish usuli” degan ma’noni bildiradi. Uning zamonaviy ma’nosi ma’lum faoliyatda maqsadga erishish uchun topilgan, bajarilayotgan va amalga oshirilayotgan usul, yo’l-yo’riq demakdir.

Ilyustratsiyalash metodi - tadbirdagi so‘z mazmuniga (boshlovchilar matni, boshqaruvchilar fikri va boshqalar) va maqsadiga mos keladigan turli-tuman badiiy va san’at vositalaridan foydalanish..

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 5 iyundagi “Yoshlarga oid davlat siyosati” to‘g‘risidagi Farmoni.

2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 2017 yil 7 fevral, Pf-4947-son farmoni.

3.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 140-sonli Qarori.

4.O‘zbekiston Respublikasining 2016 yil 14 sentabrdagi “Yoshlarga oid davlat siyosati” to‘g‘risida”gi Qonun (O‘RQ-406-son).

5.I.Karimov. Yuksak ma’naviyat –yengilmas kuch. T., Ma’naviyat., 2008.

6.I.A.Karimov. “Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori”. T., 7.2010

7.B.Sayfullayev, V.Rustamov. Madaniy tadbirlarni tashkil etish mahorati”. Toshkent, 2016.

8.Karimov I.A. O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li. «O‘zbekiston» 1992.

9.“Temur tuzuklari”.

10.Safo Ochil. “Mustaqillik ma’naviyat va tarbiya asoslari”. Risola.

11.A.Haydarov. “Madaniyat va san’at muassaslarini boshqarish asoslari. Toshkent, 2017.

12.U.Qoraboyev. Madaniy tadbirlar. T., 2002.

13.U.Qoraboev, “Badiiy ommaviy tadbirlar”. O‘qituvchi nashr., 1986.

14.A.D.Silin. “Rejissyorning ochiq maydonlarda va noan'anaviy sahnaviy kengliklarda ishlashi”. M., 1988.

.

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti
“Xalq ijodiyoti” fakulteti
“Madaniyat va san’at muassasalarini tashkil etish va boshqarish” ta’lim yo‘nalishi
bitiruvchisi **Ergasheva Soraxon Avazovnaning**
“Madaniy tadbirlar orqali yoshlarda vatanparvarlik tuyg’usini shakillantirish usullari” mavzusida tayyorlagan bitiruv malakaviy ishiga
ilmiy rahbarining xulosasi

Ergasheva Soraxon Avazovna tomonidan tayyorlangan “Madaniy tadbirlar orqali yoshlarda vatanparvarlik tuyg’usini shakillantirish usullari” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi hozirgi kundagi eng dolzarb masalalardan biri bo‘lgan yoshlar ongiga vatanparlik tuyg‘usini singdirish haqida so‘z boradi. Bunda mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so‘ng ma’naviy-ma’rifiy ishlarga davlatimiz siyosatining muhim ustivor masalalaridan biri sifatida qaralishi, davlatimiz rahbarining, ulug‘ ajdodlarimiz, madaniyat va san’at sohasi mutaxassislarining bu sohalarga oid fikr-mulohazalarini qiyosiy tahlil qilish asnosida yoritilganligi mazkur ishning mazmunini boyitgan.

Mamlakatimizda yosh avlodni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash tarbiya jarayonining eng asosiylaridan hisoblanadi. Madaniyat va san’at jamiyat hayotining muhim qismidir.U inson ruhiyatiga kuchli ta’sir ko’rsatish imkoniyatiga ega bo’lib ularning his-tuyg’ularini o’ziga xos badiiy tilda ifoda etadi.

Yoshlarning hayot tajribasi aql idrokini o’stirib borishida Vatan tuyg’usi kundalik odatdan e’tiqodga aylana boshlashi kerak. Vatanparvarlikning e’tiqodga aylanishi har bir inson qalbida ichki ma’naviyatning ifodasini belgilab beradi. Milliy Vatanparvarlik deganda esa, bu o’zbek xalqining qoniga singib ketgan iymon, insof, mehr-muhabbat, oqibat, shavqat, or-nomus, ona yurtiga, o’z eliga sadoqat axloqiy ma’naviy qadriyatlar, g’oyalar, qarashlar yig’indisi tushuniladi.

Mazkur ishda madaniy tadbirlarni tashkil etish orqali insonlarda vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish masalalari doirasida yetarlicha ma’lumotlar berilgan bo‘lib, talab darajasida yoritilgan.

Madaniy tadbirlarni tashkil etishda uning turlari xususiyatidan kelib chiqqan holda yondoshilganligi ishning salmog‘ini oshirgan. Chunki, madaniy tadbirlarning turlari juda xilma-xildir. Ommaviy bayramlar, konsert dasturlari, tematik kechalar, turli mavzudagi musiqiy, badiiy, publitsistik, xoreografik kompozitsiya, badiiy sport tomoshalari, ko‘rik-tanlovlar, davra suhbatlari va h.k.lar, shular jumlasidandir. Madaniy tadbirlarni tashkil etish, uning dramatik manbasini yaratish, unda vatanparvarlikka oid mavzularni kiritish, inson tarbiyasida tutgan roli masalalari juda ko‘p tadqiqotchilarni o‘ziga tortgan. Madaniy tadbirlarni tashkil etishda qo‘llaniladigan usul va vositalar hamda vatanparvarlik hissini uyg‘otishga

undaydigan manbalardan foydalanish to‘g‘risidagi ma’lumotlar ilmiy jihatdan asoslangan.

Undan tashqari tadqiqotning xulosa qismida berilgan tavsiyalar bu faoliyatni yaxshilashga xizmat qiladi.

Mazkur bitiruv malakviy ishida ayrim stilistik va orfografik xatoliklarni kuzatish mumkin. Ammo bu ishning mazmuniga ta’sir ko‘rsatmaydi.

Ushbu bitiruv malakaviy ishni himoyaga tavsiya etaman.

Ilmiy rahbar: Madaniyat va san’at muasaslarini tashkil etish va boshqarish kafedrasi dotsenti **V.K.Rustamov**

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti
“Xalq ijodiyoti” fakulteti
“Madaniyat va san’at muassasalarini tashkil etish va boshqarish” ta’lim yo‘nalishi
bitiruvchisi Ergasheva Soraning
“Madaniy tadbirlar orqali yoshlarda vatanparvarlik tuyg’usini shakillantirish
usullari” mavzusida tayyorlagan bitiruv malakaviy ishiga

TAQRIZ

Yurtimiz mustaqillikka erishgach, ma’naviyat masalalariga davlat darajasida e’tibor berila boshladi. Davlatimiz rahbari ma’naviy sohalarda juda katta islohotlarni amalga oshirish borasidagi ishlarni amalga oshirib, biz yoshlarni, madaniyat va san’at xodimlarini, o‘qituvchilarni xalqimizning ma’naviy, ma’rifiy, estetik ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqishga da’vat etmoqda.

Ma’naviy-ma’rifiy faoliyat - madaniy tadbirlarda o‘z aksini topadi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Madaniy tadbirlar - insonlarning ma'naviy kamol toptirish, ularning bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazish, ma'naviy boyitish, aholini madaniy, ma'rifiy, ijodiy, hordiqiy faoliyatlari uchun shart-sharoitlar, imkoniyat va qulayliklar yaratish, joylarda xalq madaniyatini taraqqiy ettirish va rivojlantirishga qaratilgan faoliyat bo‘lib, insonlarda vatanparvarlik, insoniylik, fidoiylik xususiyatlarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Ushbu bitiruv malakaviy ishida madaniy tadbirlarni tashkil etish orqali insonlarda vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishga oid fikr va mulohazalar ilmiy asoslangan holda taqdim etilgan. Madaniy tadbirlarni tashkil etish usullari, vositalari haqida yetarlicha ma’lumotlar berilgan bo‘lib, unda vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishga qaratilgan takliflar, tavsiyalar ham o‘z aksini topgan.

Tadqiqotda Respublikamizning Birinchi Prezidenti I.Karimov, davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyevning nutq va ma’ruzalari, allomalarimiz tomonidan bizlargacha yetib meros bo‘lib qolgan asarlar, madaniyat va san’at sohasi bo‘yicha mutaxassislar tomonidan yaratilgan darslik va o‘quv qo‘llanmalari hamda xukumatimiz tomonidan chiqarilayotgan xujjatlardan to‘g‘ri foydalangan. Undan tashqari, O‘zbekistonni yanada rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi, 2017 yil 3 avgust kuni Prezidentimizning adabiyot, madaniyat, san’at va ziyolilar bilan bo‘lgan uchrashuvlari hamda madaniyat va san’at sohasini rivojlantiriga qaratilgan boshqa xujjatlarda belgilangan vazifalar doirasida tadqiqot olib borilganligi mazkur ishning mazmuniga katta ijobiy ta’sir ko‘rsatgan.

Ushbu bitiruv malakaviy ishida to‘plangan va o‘rganilgan materiallar – madaniy tadbirlarni tashkil etish orqali vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish

haqida nazariy asoslarini yoritibgina qolmay, uni amalda qo‘llashning ham usullarini o‘ziga jamlagan. Madaniy tadbirlarni tashkil etish orqali insonlarning jamiyat taraqqiyotida tutgan o‘rnining beqiyosligi, ularda Vatanga muhabbat tuyg‘usini yanada orttirish, ona diyor uchun, unda yashayotgan insonlar hayotining farovonligiga erishish yo‘llari haqidagi fikr va mulohazalar mazkur tadqiqot mazmunidan o‘rni olgan.

Mazkur ishda ayrim stilistik va orfografik xatoliklarni kuzatish mumkin. Ammo, bu ishning mazmuniga putur yetkazmagan.

Soraxon Ergasheva tomonidan “Madaniy tadbirlar orqali yoshlarda vatanparvarlik tuyg’usini shakillantirish usullari” mavzusida tayyorlagan bitiruv malakaviy ishini himoyaga tavsiya etaman.

Respublika madaniyat muassasalari
faoliyatini tashkil etish ilmiy
metodik markazi direktori, professor A.Haydarov

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti
“Xalq ijodiyoti” fakulteti
“Madaniyat va san’at muassasalarini tashkil etish va boshqarish” ta’lim yo‘nalishi
bitiruvchisi **Ergasheva Soraning**
“Madaniy tadbirlar orqali yoshlarda vatanparvarlik tuyg’usini shakillantirish usullari” mavzusida tayyorlagan bitiruv malakaviy ishiga

T A Q R I Z

Shiddat bilan rivojlanib borayotgan davrda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ishlar ko‘lami kundan-kunga kengayib bormoqda. Davlatimiz rahbarining sayi-harakatlari, tashabbuslari bilan yurtimiz hayotida misli ko‘rilmagan darajadagi taraqqiyotning, islohotlar davrining guvohi bo‘lib turibmiz.

Insonlarning tinch-hotirjam yashashi, ularning manfaatlarini himoya qilish, yurtimizni jahon arenasiga chiqarish, obro‘yini ko‘tarish, Prezidentimizning ta’birlari bilan aytganda, “xalqni rozi qilish” yo‘lida qilinayotgan barcha ishlar, islohotlar Vatanimiz ravnaqida muhim rol o‘ynamoqda.

“Madaniy tadbirlar orqali yoshlarda vatanparvarlik tuyg’usini shakillantirish usullari” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi ikki bob, to‘rtta paragrafdan iborat bo‘lib, mavzular ketma-ketlikda izchil yoritilgan. Madaniy tadbirlarni tashkil etish asoslari va unda vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishga qaratilgan mavzular doirasida bitiruvchi o‘zining bu tushunchalarga oid fikr va mulohazalarini ilmiy ravishda isbotlab, o‘z qarashlarini bayon etgan.

Vatanparvarlik g’oyalarini, tushuncha va tuyg‘ularni insonlar ongiga singdirishda qanday manbalarga tayanish, qanday usul va vositalardan foydalanish kerak, degan savollarga ushb malakaviy ishda javoblar topilgan. Bu jarayonni bobolar o’giti, ona mehri, ota ibrati, ustozlar na’munasi orqali amalga oshirilishi, bu tushuncha, g’oyalarini insonlar ongiga singdirishda adabiyot, tasviriy san’at, tarix, musiqa va boshqa san’at turlaridan foydalanishning ahamiyati va bu tuyg‘u ularni ezgulikka, insonlarga yaxshilik qilishga, Vatan uchun hech narsani ayamaslikni, hatto jonini tikishgayam qodir bo‘lgan fazilatlarni shakllantirishga turtki bo‘lishi haqida berilgan ma’lumotlar qiziqarlidir.

Barkamol avlod tarbiyasi masalasi davlatimiz siyosatining hozirgi kunda eng muhim strategik vazifalaridandir. Vatanparvarlik esa insonlarning ona yurti uchun qilgan mehnatlari, uni sevishi, ardoqlashi, mardligi, jasurligi, insoniylik fazilatlari bilan uyg‘unlikda namoyon bo‘ladi. Mazkur ishda madaniy tadbirlarni tashkil etish orqali orqali komil inson, yoshlar tarbiyasi masalalarining yoritilishi bitiruv malakaviy ishining mazmunini boyitgan.

Kelajakda bu mavzu doirasida magistrlik dissertatsiyasi darajasida tadqiqot qilish mumkin. Chunki, vatanparvarlik –bu insonga berilgan eng ulug‘ ne’matlardan biri bo‘lib, insonning jamiyat, Vatan oldidagi burch va majburiyatlarini belgilaydi.

Ushbu bitiruv malakaviy ishida stilistik va orfografik xatoliklarni kuzatish mumkin. Ammo, bu ishning mazmuniga ta’sir qilmaydi.

Bitiruv malakaviy ishini himoyaga tavsiya etaman.

Estrada va ommaviy tomoshalar san’ati kafedrasi dotsenti **F.E.Ahmedov**